

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
*O'zbek adabiyoti kafedrası***

Atajonova Gulsanam

4 guruh

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**MAVZU: To'lan Nizom dostonlarida milliy xarakterlar
talqini**

Ilmiy rahbar: professor S. Mirzayeva

ANDIJON-2011

“Himoyaga tavsiya etaman”

Ilmiy rahbar: prof. S. Mirzayeva
“_____” iyun 2011

“Himoyaga ruxsat beraman”

Kafedra mudiri:

prof. S. Mirzayeva
“_____” iyun 2011

“Himoyaga tavsiya etaman”

Rasmiy taqrizchi:

Farid Usmon
“_____” iyun 2011

“Himoyaga tavsiya etaman”

Fakultet dekani:

f.f.n. Z. Qodirov
“_____” iyun 2011

Mundarija

KIRISH

I. bob. Toʻlan Nizom ijodining oʻzbek sheʼriyatida

tutgan oʻrni.

I. 1. Toʻlan Nizom ijodiga umumiy tavsifiy qarash.

I. 2. Milliy ozodlik mavzusining milliy xarakterlar

talqinidagi ahamiyati.

II bob. Toʻlan Nizom dostonlarida umuminsoniy qadriyatlarning milliy xarakterlar talqinidagi oʻrni.

II.1. Shoir dostonlarida tarixiy shaxslar obrazi xarakteri talqini.....

II.2. Toʻlan Nizomning “Uch soʻz” dostonida Bobur Mirzo xarakteri talqini

.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

Kirish

Bitiruv malakaviy ishning umumiy tavsifi.

Mavzuning dolzarbligi. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin har bir sohada boʻlgani kabi badiiy ijod sohasida ham tub burilishlar davri boʻldi desa, mubolagʻa boʻlmaydi. Iqtisodiy va siyosiy sohani isloh qilish barobarida taʼlim sohasi hamda shu bilan bir qatorda milliy maʼnaviyatimiz ildizlari hisoblanmish maʼnaviy boyligimiz adabiyotimizga boʻlgan eʼtibor ham kuchaydi. Prezidentimiz tashabbuslari bilan xalq ogʻzaki ijodini oʻrganishga juda katta imkoniyatlar yaratildi. “Alpomish” dostonining 1000 yillik toʻyini hamda zardushtiylikning

muqaddas kitobi “Avesto”ning 2700 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlanishi fikrimizning yaqqol dalilidir. Bundan tashqari yurtboshimiz “Adabiyotga e’tibor - ...ga e’tibor” deb nomlangan nutqlarida adabiyotshunoslar hamda yozuvchi-shoirlarimiz oldiga juda katta mas’uliyatli vazifalarni qo’ydilar. Yaratilayotgan asarlarda zamonamiz qahramoni hamda uning bunyodkorlik ishlarini aks ettirish kabi fikrlar ushbu nutq mohiyatini aks ettiradi.

Istiqlol yillarida ijodkorlarimiz tomonidan tarixiy mavzularga, shuningdek, yuqorida ta’kidlaganimizdek, zamonaviy mavzularga murojaat etilgani ko’p kuzatiladi. Ayniqsa, shoirlarimiz lirik va liro-epik doston janrida samarali ijod etdilar. A. Oripovning “Sohibqiron”, Usmon Azimning “Halil sulton”, Ma’ruf Jalilning “Amir Temur qissasi”, Ismoil To’lakning “So’nggi kecha”, Muhammad Alining “Mashrab” dostonlari; To’lan Nizomning buyuk yurtdoshimiz, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti qalamga olingan “Uch so’z”, Mashrab siymosi badiiy talqin etilgan “Ruhi ravonim”, jadid namoyandasi, elning munosib o’g’loni Abdulhamid Cho’lponning badiiy qiyofasi aks ettirilgan “Cho’lpon”, yurtimizning poytaxti va boshqa viloyatlari bilan Farg’ona vodiysini bog’lab turuvchi rishta – Qamchiq dovoni qurilishiga bag’ishlangan, o’zbek yo’lsozlarining mehnat shijoati o’zining badiiy talqinini topgan “Dovon” dostonlari, ustoz shoir Mirtemirning shoirona portreti va xarakter chizgilarini o’zida mujassam etgan “Majnuntol yig’isi” va shoirning “Oq gul”, “Botmay qolgan oy” lirik qissalari ana shunday asarlar jumlasidandir.

Yuqorida nomlari zikr etilgan shoirlarimiz elning dardi bilan yashab, xalqning orzu-armonlarini o’zlarining she’riy misralari orqali barilla kuylab kelmoqdalar. Shoir To’lan Nizomning ham ana shular orasida borligi bizni quvontiradi. To’lan Nizom ham birinchilar qatori istiqlol va mustaqillik kuychisi bo’lib maydonga chiqdi. O’zlikni tanish, millat va ona Vatan ravnaqi uchun kurash, kelajakka katta ishonch shoirning asosiy mavzularidan biridir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, shoir o’zi yaratgan dostonlarida xalqimiz ichidan chiqqan hur diyorimizga munosib farzandlar timsolini yaratgan va ular orqali dostonlarida milliy xarakterlar silsilasini ro’yobga chiqara olgan, buning natijasi o’laroq u ma’naviyat va ma’rifatni tiklash borasida o’z ijodi bilan munosib hissa qo’shgan. Istiqlol yillarida yaratilgan tarixiy va zamonaviy ruhdagi dostonlar va ularning o’ziga xos xususiyatlarini o’rganish bugungi kunda adabiyotshunoslik sohasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Mavzuning o’rganilish tarixi. Biz ijodiy faoliyati haqida fikr yuritmoqchi bo’lgan ajoyib iste’dod egasi – To’lan Nizomning o’zbek adabiyotida munosib o’rni bor. Uni o’rganish, tadqiq va targ’ib qilish adabiyotshunoslarning muhim vazifalaridan biridir. Biroq shuni aytish lozimki, To’lan Nizom ijodini atroflicha mukammal tahlil etgan jiddiy tadqiqot ishi haligacha yaratilgani yo’q. To’lan Nizom ijodi bo’yicha adabiyotshunos olimlar Ozod Sharafiddinov va

Naim Karimovlar o`zlarining adabiy-tanqidiy maqolalari bilan chiqdilar. Shoir Ismoil To`lak “She`r – qalb yolqini” risolasida adib ijodiy faoliyati, she`r va dostonlarining o`ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritadi. Ammo bularda biz aytmoqchi bo`lgan masalalar bo`yicha mukammal fikr bayon qilinmagan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishini yaratish uchun quyidagi maqsad va vazifalarni o`z oldimizga belgilab qo`ydik.

1. To`lan Nizomning o`zbek she`riyatida tutgan o`rni, hayoti va ijod sahifalariga umumiy bir tavsifiy qarash;
2. Adib dostonlarida milliy ozodlik g`oyasining xarakterlar talqinidagi o`rnini o`rganish va aniqlash;
3. Dostonlarda tarixiy shaxslar timsoli, jumladan Zahiriddin Bobur obrazi va xarakteri talqinini atroflicha tadqiq etish;
4. Umuminsoniy qadriyatlarning milliy xarakterlar talqinidagi ahamiyatini o`rganish;
5. Yuqoridagilar yuzasidan umumiy xulosalar yasash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur mo`jaz tadqiqotimiz To`lan Nizom ijodini adabiyotshunosligimizda birinchi bor o`rganishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi. Bu ishda shoirning o`zbek adabiyotida tutgan o`rni, adabiyotimizga qo`shgan hissasi, dostonlarida tarixiy shaxslar va istiqlool davri qahramonlari va ularning ruhiyati hamda xarakterlari talqini atroflicha tadqiq etiladi.

Bitiruv malakaviy ishidan quyidagi hollarda foydalanish mumkin deb hisoblaymiz:

1. Andijonlik shoir To`lan Nizom hayoti va ijodiy yo`liga bag`ishlangan kecha va yig`inlarda qatnashchilarga to`la ma`lumot berish uchun ma`ruzalar tayyorlash;
2. Turli xil o`quv kurslarida ijodkor badiiy mahorati haqida to`xtalish uchun foydalanish;
3. Maktablarda o`tkaziladigan adabiy-badiiy kechalarda hamda adabiyot to`garaklarida Andijon adabiy muhiti va shoir ijodi haqida fikr yuritish uchun zarur manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Kirish, ikki asosiy bob, to`rt fasl va ilmiy ish yuzasidan chiqarilgan xulosalardan iborat.

I. bob. To`lan Nizom ijodining o`zbek she`riyatida tutgan o`rni.

I. 1. To`lan Nizom ijodiga umumiy tavsifiy qarash.

Odatda, she`r sharhlanmaydi, she`r anglanadi. Anglash barobarida qalbingizda nelardir uyg`onib, shoirningalangali tuyg`ulari, ko`nglidan otilib chiqqan satrlari yurakda panoh topadi.

She`r qalbning yolqini. U qalbning amri bilan dunyoga keladi. She`r ruhning ovozi. Iztirob chekayotgan, yayrab-yashnayotgan ruhning ovozidir. She`r - qalbning eng nozik va eng chuqur qtlamlaridan sizib chiqadigan shaffof tuyg`u. Tomchida olam aks etganidek unda shoir ruhiyatida yetilgan injular namoyon bo`ladi. Inju esa o`z bag`rida yurtning, xalqning sevinchlari, dard-u quvonchlari, orzu-armonlari silsilasidan dunyoga keladi.

She`riyat o`zi nima? Bu savolga Belinskiy shunday javob beradi: “She`riyat – bu chaqaloqning beg`ubor kulgusi, tiniq nigohi, sho`xchan quvonchidir; she`riyat – bu dilbar yanog`idagi qirmizi ibo, dengizdek teran, osmondek zangor ko`zlardagi sokin yoki tim qora ko`zlardagi chaqmoqdek otash, marmar yelkalari uzra yoyilgan qo`ng`iroq sochlar to`lqini, nozik siynasining hayajoni, kumush ovozidagi so`limlik, ohanrabo takallumidagi musiqa, qaddi-qomatining mavzunligi, jozibador harakatlaridagi go`zallik va huzurbaxshlik... She`riyat – bu o`spirinning tuganmas kuch barq urib turgan o`tli nigohi, uning matonati va shijoati, orzularga chanqoqligi, osmonni ham, yerni hamotashin bag`riga mahkam bosish, ado bo`lmas hayot jomini dast ko`tarib bo`shatish istagidagi betiyiq shiddati... She`riyat – bu nuroniy keksaning nursiz ko`zlaridagi sokin yolqin, serajin yuzlaridagi mehrdek muloyim, xayoldek teran samoviy ifodasi, titroq, uzuq ovozidagi osoyishta, benihoya samimiy ohang, mayin va muhim so`zlari, donishmand lablaridagi mehribon va ulug`vor tabassum...”

She`r shoirning shaxsiy tuyg`ulari yig`indisidan emas, balki u mansub xalqning ulkan qalbidagi dard-u quvonchlari zilzilasidan dunyoga kelib, ijtimoiy ma`no kasb etadi. Shoirning har qanday shaxsiy she`rlari qatlamlariga ham davr va umuminsoniy tuyg`ular singdirilmog`i kerak, aks holda, she`r ufqi torayadi, uning umrboqiyligiga putur yetadi.

Shoir qalamidan to`kilgan satrlar mag`zida uning eliga, yurtiga muhabbatini, bu yurtning shoirigagina ma`lum bo`lgan qirralarini, bu xalqning go`zal va oliyjanob fazilatlarini ko`ramiz va ko`z oldimizda bu yurt va xalq butun borlig`i bilan gavdalanadi. Shu jihatdan olganda, shoir yurt va xalqining qalb olamini o`zida aks ettiruvchi badiiy ko`zgudir.

Biz ta`kidlayotgan bu xil xususiyatlar poytaxtdan olisda yashab, ijod qilayotgan ijodkorlarda boshqacharoq ko`rinishlarda namoyon bo`ladi.ular o`z asarlari qalbiga atrofida yashayotgan kishilarning pokiza va samimiy tuyg`ularini, bu yurtning o`z muammolarini dadillik bilan olib kirishga intiladilar. Ular o`zlari yashab turgan mintaqalardagi masalalar katta masalalarning bir zarrasi ekanligini badiiy dalillashga harakat qiladilar.

Ming shukrlar bo'lsinkim, parvardigor o'zbek she'riyatini iste'dodlardan qismagan. Oils tarixning qaysi davrini yoki yuz yilligini olmaylik, asrlar oshib kelayotgan she'riyatimiz borligidan g'ururlanamiz. Ular g'azal mulkingning sultoni navoiy bobomiz boshliq mana men deb o'zligini namoyon qilib turadilar.

Ana shunday ijodkorlar safida To'lan Nizomning ham borligi quvonarlidir. Shu o'rinda ulug' shoir Nekrasovning "Shoir bo'lmasliging mumkin, lekin xalqning fidoyi fuqarosi bo'lishing shart", degan mazmundagi fikrlari beixtiyor yodga keladi. U ham fidoyi fuqaro bo'lish har narsadan oliy burch ekanligini chuqur anglab yetgan va buni o'z maqsad-manziliga aylantirgan.

O'zbekiston xalq shoiri To'lan Nizomning asl ismi-sharifi Nizomiddinov To'lanboy bo'lib, 1938-yil 17-avgustda Andijon viloyati, Bo'z tumani, "Ozod" shirkat xo'jaligi Beshgul qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni 1959-yilda tugatib, Andijon pedagogika institutida 1959-1965-yillarda sirtqi bo'limida o'qidi. Yoshlar tashkilotlarida rahbar (1965-1967), tuman xalq ta'limi bo'limida mudir (1976-1983), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Andijon viloyat bo'limida mas'ul kotib (1983-1985), Bo'z pedagogika bilim yurtida direktor (1985-2001) lavozimlarda faoliyat yuritdi.

To'lan Nizom uzoq izlandi. Uning yozganlari hamqishloqlariga ma'qul bo'lsa-da, o'zining ko'ngli to'lmas edi. Ayniqsa, oliygohni tamomlagandan keyin yozganlaridan uyala boshladi. Matbuotga yubormay qo'ydi. Uzoq izlandi. Pushkinni o'qidi, Yeseninning she'rlari uning doimiy hamrohiga aylandi. Do'sti Muhammad Ali kabi Toshkentga ko'chib ketmoqchi bo'ldi, ammo onasining noroziligi bunga to'sqinlik qildi. Shu- shu qishloqda qolib ketdi.

Komsomolda yetakchi, raykompartiyada xodim, tuman maorifchilariga yetakchilik qildi. U bu orada odamlar ruhiyatini o'rgandi, hayotning kitobda yozilmaydigan sir-asrirlari bilan oshno bo'ldi.

Uning ilk she'riy to'plami 1970-yilda "Sening istaklaring" nomi bilan chop etilgan. Mazkur to'plamga kirgan she'rlarda bug'ubor tuyg'ular, pokiza orzular ifodalangan bo'lsa-da, hali ularning ko'pchiligi badiiy jihatdan ancha g'o'r edi. Shoirning ushbu ilk she'riy to'plami adabiy tanqid e'tiborini tortdi. Turli maqsad va saviyadagi taqrizlar paydo bo'ldi. Ortiqcha tanqid shoirning she'riyatga bo'lgan muhabbatini so'ndira olmaganidek, ortiqcha maqtov ham esankiratib qo'ymadi.¹

Ilk to'plamidan o'rin olgan she'rlarning ko'pchiligi badiiy jihatdan zaif, quruq dekorativ ruh ustuvor ekanligini shoir qalban his qilar, shuning uchun ham ko'nglining bir cheti kemptik turar

¹ Mirvaliyev S. Shokirova R. O'zbek adiblari. T. : G'afur G'ulom nshriyoti, 2007, - b. 166

edi. Shoirning badiiy jihatdan ancha g`or bo`lgan holati hatto “Iftixor” (1982) nomli ikkinchi to`plamida ham ko`zga tashlangan. Biroq shoir yillar o`tgan sayin izlanishlarining samarasini ko`ra boshladi. Endi u chinakam qalb she`riyati, ruhiyat she`riyatini, yaratish sari ko`tarila boradi. Insonning ma`naviy olamini, o`y va xayollari, orzu va umidlarini, tarannum etishga intiladi. Shoir qalbidan qalqib chiqayotgan misralarda el-yurt qayg`usi, Ona Vatan muhabbati, xalqiga bo`lgan mehr tuyg`usi mustahkam o`rin ola boshladi.

Shoir ijod olamida cho`zilib ketgan yaldo kechalari tobora ortda qolib borayotganligini his qila boshlaydi. Onasi O`g`il buvi Sohib qizining yorqin xotirasiga bag`ishlangan “Bahor yaqin” deb nomlanuvchi she`rida o`z rhiyatidagi iqlimlarni bahor timsoli vositasida ifodalashni niyat qilib oladi. Shoirning “Derazamdan qish ko`rkini qilar namoyish, u cho`zilib jonga tegdi, bo`ldi ko`p tashvish” satrlari qatida bolalikning xayollarga to`la olami bo`y ko`rsatayotganligini his qilish mumkin. Bu satrlar oynalari qirov bog`lagan derazadan tashqariga termulib turgan bola qiyofasini ko`z oldimizda gavdalandiradi. Uning ko`zlaridan “Chumchuqjon, tezroq bahorni olib kel, sog`imdim, sandalning kul to`la qo`riga tovon bosib o`tirish jonimga tegdi”¹ degan sassiz nidolarni anglash mumkin.

Shoirning quyidagi manzaralari bilan tanishish asnosida siz ham o`z bolaligingizga qaytasiz.

Baland-baland teraklarning shoxlari shiydam,
Oq ro`molli kampirlardek turar tollar ham,
Rizq axtarar tom boshini titib qushcham ham,
Uyda turib sovuq sezar nigohim, diydam,
Olam uzra yashillikni qo`msayman shu dam:
“Bahor yaqin, bahor yaqin, gul bahor yaqin!”²

To`lan Nizom bolalar haqida ham ajoyib she`rlar yozgan. Uning “Andijonda bir qush bor”, “Qaldirg`och”, “Oftob ishq” kabi she`rlari bolalarning beg`ubor, sirli olamini ochishga qaratilgan.

She`rda biror yaxshi fikrni xayyomona go`zal va ixcham ifodalashga kimlar qiziqmagan? Shu ma`noda she`riyatning ruboiy turi faqat Sharqnigina bo`lmay, G`arbni ham mahliyo etgani bejiz emas.

¹ To`lak I. She`r – qalb yolqini. – T. : G`afur G`ulom nashriyoti. 1994, B. 11.

² Nizom T. Chaman ichra. – T. , Cho`lpon nashriyoti. 1994.

Bu gal biz ruboiyot maydonida andijonlik shoirimiz Toʻlan Nizom ot solganini guvohi boʻlib turibmiz. 303 ruboiy.¹

Toʻlan Nizom ruboiylarida birinchi koʻzga tashlanadigan xususiyat – mavzular rang-barangligi. Bunda shoirni hayajonga solayotgan muammolar oʻchmas. Ular yurtimizda mustaqillikni musathkamlash, milliy iqtisodni koʻtarish, milliy mafkurani yaratishdir.

Shoir ruboiylarini oʻqir ekansiz, yana bir narsa koʻzga tashlanadi. Ularga biror rasmiy dunyoqarashning soya solayotgani yoki tazyiq oʻtkazayotgani sezilmaydi. Shoir xohlagan va qalbini jizillattgan mavzularda qalam tebratgan, oʻzining shaxsiyatini ham unutmagan. Toʻlan Nizom ruboiylari orasida ishq-muhabbat, doʻstlik haqida nafosat bilan, chin yurakdan, ichki ruhiy ehtiyojdan kelib chiqib yozilgan quyidagi ruboiylarga duch kelamiz:

Doʻstlik nima oʻzi? Kim yaratadi?
Doʻstsiz oʻtgan damlar tez qaritadi.

Shoirning chorak asrlik ijod xirmonidan bir chashma sifatida tuzilgan “Muqaddas ruh” toʻplamidan ustozlar gʻazallariga bogʻlangan muxammaslari ham oʻrin olgan.

Maʼlumki, muxammas bogʻlashning oʻziga xos nozik jihatlari bor. Shulardan biri shakily tomonlarga qatʼiy amal qilish boʻlib, gʻazal qaysi bahrda boʻlsa, bogʻlangan satrlar ham aynan shu bahrda boʻlishi shart. Aks holda vazn buziladi. Demak, vaznning bir xil boʻlmasligi ohang tebranishidagi bir xillikka putur yetkazadi. Muxammasnavislar diqqat qilishi lozim boʻlgan ikkinchi tomon mazmun bilan bogʻliq boʻlib, fikriy bogʻliqlik, mantiq tadrijidir. Shoir bayti ustiga tashlangan uch misra mantiqan bir-birini toʻldira borishi kerak. Masalaning bu tomoni Toʻlan Nizomda qanday hal qilingan, degan savolga umuman ijobiy javob berish mumkin. Fikrimizni tasdiqlash maqsadida Boburning “Jamoling vasfini...” nomli gʻazaliga bogʻlangan muxammasdan bir band keltiramiz:

Ishqing oʻti jonga tushti, oʻz-oʻzimni unutgaymen,
Agar qarshimda togʻ boʻlsa, misli Farhod ushatgaymen.
Senga yetmoq uchun yovni shiddat bila qulatgaymen,
Jamoling vasfini, ey yor, necha eldin eshitgaymen,
Ne kun boʻlgay visolinnga meni dilxasta etgaymen.

¹ Mirvaliyev S. Shokirova R. Oʻzbek adiblari. – T. : Gʻafur Guʻlom nashriyoti, 2007. – B. 166.

Demak, shoirning ustoz g`azaliga muhammas bog`lashdan muddaosi fikriy yaqinlikni ko`rsatish, qolaversa, ustozga hurmat bajo keltirishdir. Masalaga mana shu nuqtadan turib yondashadigan bo`lsak, To`lan Nizom ijodida bu narsa chiroyli hal qilinganligiga amin bo`lamiz.

“Muqaddas ruh” kitobiga o`ziga xos latofat baxsh etib turgan she`rlar ichida ona mavzusidagilari alohida ajralib turadi. Shoirning Vatan, millat tuyg`ulari qabarib turgan she`rlarida ko`tarilgan badiiy fikrlar “She`r aytgim kelyapti, onajon!” turkumida yana-da teranlashtiriladi. Turkumga mansub she`rlarni bir-birlariga mantiqan bog`lab turgan timsol – ona va farzand. Shoir farzandning onaga bo`lgan muhabbatini yana-da ishonchliroq ifodalash maqsadida armon timsolini ham kiritadi.

Lirik qahramon onadan erta ayrilgan. Uning og`irini yengil qila olmagan, “sahrodan bir bog` o`tin orqalab kelolmagan” (Mirtemir). Farzand armonlari shoir she`rlarining asosiy maqsadini tashkil qiladi. Uning nazarida, ona – dunyodagi barcha zotlarning mo`tabari. Uni e`zozlash, ardoqlash har bir farzandning iymoniy burchi.

“Onam surati” she`rining lirik qahramoni qalbi ayriliq iztirobida qovuriladi. Mangu yo`qotish uning diliga mangu hijron cho`g`larini tashlagan. U o`zini har yon uradi, tasalli qidiradi – befoйда. Iztirob gulxanlari tobora alangalana boradi. U xayolan ona jamolini tiklaydi, u bilan ruhan suhbat quradi.

Shoir lirik qahramon kechinmalarini tasvirlar ekan, bir o`rinda “Yolboraman, o`tinaman, surat jim” satrlarini keltiradi. Uning qalbini sog`inch o`rtaydi. U “ Shoir bo`ldim, hasratingni aytgani” , der ekan, onaning biro g`iz so`ziga mushtoq ekanligini ifodalaydi. Muallif qahramon kechinmalarini ifodalar ekan, og`zaki ijodga xos mubolag`aviy tasvirlardan unumli foydalanadi. U bir o`rinda :

Men yashayman izlaringga intizor,
Sog`inganda O`zbekiston menga tor, -

deydi. Lekin bu mubolag`a ham uning qalb olamidagi tebranishlarni to`la ifodalay olmayotgandek, shoir yana davom etadi:

Ko`z yoshim – suv, bog` unar chaman-chaman,
Oq suting, deb ilhomimni ichaman,
Sen – Turkiston, Ona – yer, Ona – Vatan...

Yuqorida To`lan Nizom tabiatiga xos fazilatlar haqida gapirib, uning ustozlariga bo`lgan samimiy hurmati she`rlarida takror-takror ifodalanganini e`tirof etgan edik. Haqiqatan ham, shoir

uchun ruh muqaddas. Uning ustozlar, ona va boshqa aziz kishilargabag`ishlangan she`rlarida Ruh ham o`ziga xos timsol, to`grirog`i, xarakter darajasiga ko`tariladi:

Muqaddas ruh, pokiza xayol,
O`chmas sevgi, iymon-e`tiqod.
Siz Gulisiz – qo`l yetmas hilol,
Sizni dedi Alisherday zot...¹

To`lan Nizom o`z sozini davr ohanglariga moslab, mahoratning sirli so`qmoqlaridan asta odimlab borayotgan shoirlar sirasiga mansub. U yaratgan lirik qahramon o`zini ruhiy-psixologik jihatdan qayta qurib borayotgan inson, ya`ni xarakterdir. Endi unga hayqiriqlar, quruq madh-u sanolar yoqmaydi.

Shoirning “Oy qizlar” nomli she`riy to`plami ham diqqatga sazovordir. Ushbu to`plamni shoir qizlariga, ya`ni Gulshod, Ra`no, Yulduz va Bahorga bag`ishlagan:

Do`stlarim, mening ham to`ng`ich bolam – qiz,
Boshidan uch marta aylandi bahor.
Ko`zlari shahlodir, qoshlari qunduz,
Sho`xligi jilg`aning sho`xligicha bor.

Qiyqirib kuladi, o`ynar kaptarday,
Bu dunyo shodligin bermish tabiat.
She`rimga tutganim – toza daftarday,
Eng oily tuyg`um-la qilgum tarbiyat.

Qizginam jilmayib nazar solgan chog`,
Xo`rsinib olaman yuragim tolib.
Butun xayollarim, o`ylarim tarqoq,
Manglayin silayman, soyabon bo`lib.²

To`lan Nizom ruboiylarida goh Navoiyga ergashsa, goh Boburdan andoza olmoqchi bo`ladi. Uning ruboiylari bu ulug`larning she`rlariga ruhan hamohang, shaklan esa o`zbek xalq ijodidagi to`rtliklarga yaqin.

To`lan Nizomning ijodiy niyati – o`zbek adabiyotida ruboiy sohasida Navoiy, Bobur yoqqan chiroqni o`chirmaslik. Mening nazarimda, To`lan Nizom “303 ruboiy” kitobi bilan shu chiroq yonida kulib turganday!

¹Nizom T. Muqaddas ruh. – T: G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1992, -B. 93.

² Nizom T. Oy qizlar. –T: G`afur Gulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1991. –B. 93

Bundan tashqari, Toʻlan Nizomning oʻz piri komili boʻlmish Bobur hazratlariga muhabbati cheksizdir. U avval ustoz gʻazallariga muxammaslar bogʻladi, keyin unga bagʻishlab koʻplab sheʼrlar yozdi, ulugʻ shoir haqida doston bitdi. Voqealr uch zamin – Turkiston, Afgʻoniston, Hindistonda boʻlib oʻtadi.

Shoir Boburga bagʻishlangan “Uch soʻz” nomli doston ustida jiddiy izlandi, ishladi va uni nihoyasiga yetkazdi.

Shoirnig chorak asrlik ijod xirmonidan bir chashma sifatida tuzilgan “Muqaddas ruh” toʻplamidan ustozlar gʻazallariga bogʻlangan muxammaslari ham oʻrin olgan. Shoirning ushbu kitobiga nom boʻlgan ishqiy sheʼrlaridan biri “Muqaddas ruh” deb atalgan. Bu sheʼrda kuylangan ayollar shoirga zamondosh emas, ular hatto real siymolar ham emas. Ular – xalq afsonalarida, Navoiyning oʻlmas dostonlarida kuylangan goʻzzallik timsollari. Shoir ana shu afsonaviy muhabbat ramzlari boʻlgan ayollarning muqaddas ruhini koʻzda tutib, fikr yuritadi:

Muqaddas ruh, pokiza xayol,
Oʻchmas sevgi, iymon-eʼtiqod.
Siz Gulisiz – qoʻl yetmas hilol,
Sizni dedi Alisherday zot...
Bu dunyoga kelgansiz asli,
Layli boʻlib, Shirin boʻlib siz.
Sizning bilan yashnar ishq fasli,
Siz goʻzallik shohisiz yolgʻiz...¹

Toʻlan Nizom Saida Zunnunova xotirasiga bagʻishlangan “Oq gul” (1996) nomli lirik qissa ham yozgan. Unda obrazlar, lirik kechinmalar, shirin xotiralar, armonli tuygʻular koʻmagida ifodalangan. Bu asarda ijodkor qismati haqida. Unda ikki ijodkor obrazi mayin, lirik kechinmalar armonli tuygʻular bilan birlashib mujassam boʻlgan. Oq gul poklik, bokiralik ramzi. U pokiza ruh timsolidir.

Hovlini supurib yuribdi opa,
Ogʻzi toʻla kulgu, qalb toʻla tuygʻu.
- Saidaxon, dedi adib bir dafʼa, -
Mana oppoq gul... sizga oʻxshash u.²

Toʻlan Nizom ijodining yana bir sahifasini bolalarga bagʻishlangan sheʼrlar tashkil qiladi. “Andijonda bir qush bor” toʻplamidan oʻrin olgan sheʼrlar bolalar olami tasviriga bagʻishlangan.

¹ Nizom T. Muqaddas ruh. – T: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1992, -B. 93.

² Nizom.T Oq gul. Andijon: 1996, - B. 4.

Bolalar hayvonot va qushlar olamining do'stlari. Tabiatdagi oddiy bir hodisa ham ularga ajabtovur tuyuladi, ulardagi g'aroyib belgilarga boshqacha nigoh bilan qaraydilar.

“Qaldirg'och” da shoir bolalarda ko'p uchraydigan qiyoslash, o'xshatish orqali fikrni bayon qilish xususiyatlariga ko'proq e'tabor beradi. She'r bola tilidan bayon qilinganligi uchun ham ular nutqiga xos tomonlarga ko'proq ahamiyat beriladi:¹

O, qaldirg'och, qaldirg'och,
Qora ko'zlaring qiyg'och.
Duming o'xshar xivichga,
Qanotlaring qilichga.
Oyoqlaring tim qora,
Tumshug'ing tig'day bor-a?
Bo'yinchangda oq sharf,
Bir ko'ray yaqin borib.²

To'lan Nizom ijodi haqidagi tasavvurlarimiz to'la bo'lmog'i uchun uning dostonlari haqida kengroq mulohaza yuritmoq darkor. Doston ham xuddi drama kabi g'oyat murakkab janr hisoblanadi. Bu sohada biror bir jiddiy muvaffaqiyatga erishmoq uchun shoir astoydil mehnat qilmog'i, ko'p izlanmog'i zarur. To'lan Nizom bu janrda obdon tajriba orttirgandan keyin – 90-yillarda qo'l urdi va qisqa muddat ichida bir necha doston e'lon qildi. Bular 1991-yilda Mirtemirga bag'ishlangan “Majnuntol yig'isi” yana o'sha yili yaratilgan “Cho'lpon” dostoni, 1992-yilda “Girya” dostoni, 1993-yilda e'lon qilingan Mashrab qismati fojiasini umumlashtiruvchi “Ruhi ravonim” dostonidir. Bularning hammasi lirik dostonlardir. Bu dostonidan so'ng shoir moziyning yana-da olisroq manzillariga – Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davrga adabiy sayohat qilib, bu ulug' shoh va shoir haqida “Uch so'z” dostonini yaratdi. Dostonda To'lan Nizom Bobur umrini boshdan-oxir miridan sirigacha hikoya qilib berishni maqsad qilib qo'ymaydi. Faqat bu mag'lubiyat va zafarlarga, quvonch va qayg'ularga to'la hayotning eng muhim o'rinlarini aks ettirish orqali yaxlit poetik obraz yaratishga muvaffaq bo'ladi.

¹ To'lak I. She'r – qalb yolqini. – T: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1994, B. 34.

²Nizom T. Andijonda bir qush bor.

I. 2. Milliy ozodlik mavzusining milliy xarakterlar talqinidagi ahamiyati.

Mustaqillik har bir vatandoshimiz, yurtdoshimizning butun hayotini, orzu-umidlarini o`zgartirib yubordi. Ollohga beadad shukurlar bo`lsinki, o`z milliyligimiz, insoniyligimiz, qadriyatlarimizga ega bo`ldik. Xalqimiz sarchashmalarining ko`zlari qaytadan ochilganligi, butun jahon tamadduni tarqqiyotiga munosib hissasini qo`shgan buyuk ajdodlarimizning moddiy va ma`naviy merosi teranligi va chuqurligi anglab olinganligi, har bir avlodning o`z o`tmishiga, olijanob milliy va diniy an`analariga hurmat bilan qarash, ularni asrab-avaylash ruhida tarbiyalayotganligi, ayni chog`da hozirgi zamon sivilizatsiyasi va ma`naviyati qadriyatlarini o`zlashtirish va ularga oshno bo`lish zarurligi ravshan anglab yetilganligi – mana shularning hammasi hayotbaxsh bir zamindirki, bizning yangilanish va xalqimizning milliy o`zligini anglashini oshirish, aholining siyosiy yetukligi va faolligini kuchaytirish borasidagi siyosatimiz mana shu zaminga tayanadi. Xalqimizning asrlar osha yashab kelgan milliy an`analari, urf-odatlar, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg`unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg`usini odamlar qalbi va ongiga yetkazishi, ularni vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalanishi, halollikni, mardlikni, sabr va bardoshlilikni, adolat tuyg`usini, bilim-ma`rifatga intililishni tarbiyalash yo`lidaxizmat qilayotir.

Shu kunlarda xalqimiz Vatanimiz mustaqilligining 20 bayram yillik qutlug` sanasini keng miqyosda nishonlash uchun katta hozirlik ko`rmoqda. Barchamiz uchun haqiqatan ham eng ulug`, eng aziz bo`lgan bu bayram arafasida o`tgan davr mobaynida bosib o`tgan murakkab yo`limizga yana bir bor nazar tashlab , mustaqil taraqqiyotimiz davomida amalgam oshirilgan ishlarimiz, erishgan natijalarimizni xolisona baholash va ularning mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilik, butun xalqimizning e`tibori va ong-u shuuriga yetkazish maqsadga muvofiq deb o`ylaymiz.

Albatta, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaro ana shu ishlarga o`z bahosini berish bilan birga har qaysi inson uchun muhim bo`lgan masalalar yuzasidan fikrlarini bildirishga haqli. To`lan Nizom keyingi paytlarda dostonchilikda o`z iste`dodi qudratini sinab ko`rmoqda. Uning bu boradagi birinchi muvaffaqiyati “Cho`lpon” dostoni bo`ldi. Hech ikkilanmasdan aytish kerakki, doston shoirning o`zbek adabiyotidagi o`rnini belgilab berdi. Avvalo, keng kitobxonlar ommasi, qolaversa, adabiy tanqidchilik asarni iliq kutib oldi. Ijobiy fikrlar aytiladi. Dastlab doston “Sharq yulduzi” jurnalida, so`ngra “Muqaddas ruh” kitobida, yaqinda esa alohida kitob holida nashr qilindi. Radio, televideniya doston asosida bir qator ko`rsatuv va eshittirishlar amalgam oshirildi.

“Cho`lpon” istiqlol bergan imkoniyatlarning mahsuli bo`lganligi uchun ham unda erk uchun kurashgan isyonkor qalb faryodlariga alohida ahamiyat berilgan. Ma`lumki, xalqning boshiga qora bulutlarni olib kelgan 37-yilning achchiq, izg`irinli shamoli millat daraxtining sarxil mevalarini duv to`kib ketdi. “Xalq dushmani” tamg`asi bilan qatliom etilgan millatning fidoyi ziyolilarining qatag`on qilishdan maqsad xalqni asoratda saqlash edi. Cho`lpon kabi millatparvarlarning aybi erkka intilgani, xalqni ma`rifat nurlaridan bahramand etishga sa`y qilgani edi. Nurni ko`mib bo`lmaganidek, haqiqatni ham qatl etib bo`lmaydi. Uning himoyachilari, kuychilariga qora bo`yoq chaplanmasin, baribir haqiqat qaror topaveradi, xalq o`z fidoyi farzandlarini himoya qilib oladi. Unga chaplangan dog`lar tozalanadi.

Yangi o`zbek milliy adabiyotiga tamal toshini qo`ygan Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho`lpon kabi allomalar oqlandi, ularning ishlariga, asarlariga to`g`ri baho berildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi bunday o`zgarishlar, shubhasiz, adabiyotga ham o`z ta`sirini o`tkaza boshladi. Jaded adabiyoti namoyondalari qalamiga mansub asarlarni chop etishga kirishildi. Shu bilan birga, ular timsolida yaratilgan asarlar ham paydo bo`la boshladi.

To`lan Nizomning “Cho`lpon” dostonidagi shoir “xalq dushmani ham”, “millatchi” ham emas, balki xalqning shon-shavkatini tashkil etuvchi siymolardan biridir. Dostonning “Zilzila” deb nomlangan dastlabki faslida 1902-yili Andijonda bo`lib o`tgan va yuzlab xonadonlarni

vayronaga aylantirgan zilzila tasvir etiladi. Muallif bu zilzila tasviriga bejiz murojaat etmagan. Agar zilzila insoiyat irodasidan tashqarida ro'y beruvchi kulfat bo'lsa, 1937-yilda Cho'lpon singari sofko'ngil, yurtim deb, elim deb yashagan millionlab kishilarning mahv etilishi. Shoir zilzila tasvirini majoziy obraz darajasiga ko'tarib, undan XX asrda ro'y bergan dahshatli fojiani ochishda foydalangan¹.

Asarning "Sado" hamda "Aks-sado" deb nomlanuvchi boblari bor. "Sado" bobi Cho'lponning qalb nidolari asosiga qurilgan bo'lib, unda shoir iztiroblari ifodalanadi:

Yaproq yanglig` uzildim, qora taqdir emasmi bu,
Tillarimni kesdilar, menga tahqir emasmi bu,
Bog`landi oyoq-qo`lim, dogu`li dahr emasmi bu,
Vijdonim but va halol bir musulmon odam edim,
do`stlar,

Muhabbat osmonida go`zal cho`lpon edim, do`stlar.

Shoirning bu nolalari zaminida adolatsiz tuzumga qarshi isyon tuyg`ulari yotadi. Garchi "Sado" "men" tilidan bayon etilsa-da, unda yolg'iz shaxsning alamlari yoki bo'lmasa, birgina shoirga uyushtirilgan fitnalar ifodasi yotmaydi. Bu yerda cho'lpon nidosi – xalq nidosi sifatida jaranglaydi:

Iffat bo`g`in qizlari sochvonni o`tga tashladi,
Behayo, sharmandalar, quzg`unlar bunda qishladi.

Millatning ertangi porloq istiqboli deb o`zini kurashlar jabhasiga tashlagan fidoyi shoir qalb olamidagi manzaralar nechog`lik mahzun va ma`yus bo'lmasin, u o`quvchida tushkunlik kayfiyatlarini uyg`otmaydi. Aksincha, haq yo`lida jonini fido aylash jo`mardlik ekanini, bunday zotlar insoniyat qalbida abadiy yashab qolajagini anglab yetadilar.

To`lan Nizom Cho'lpon timsoli orqali Cho'lponlar qismatini tasvirlash niyatini amalga oshirishni maqsad qilib olar ekan, asosiy diqqatni "qizil siyosat" xatolarini fosh etishga qaratadi.

Dostonning "O`q ovozi" bobi ham avvalgi boblarni mantiqan to`ldiradi va ulardagi fikrning yana-da rivojlanishiga ko`mak beradi. Quyidagi satrlar doston yakunidek jaranglaydi:

O`zbekiston, shoir o`g`ling –
Cho`lponingga kim o`q uzdi,
O`q ovozi yarim kecha
Uxlayotgan ko`kni buzdi.

¹ Sodiqova R. Hozirgi o`zbek dostonlarida mashhur siymolar obrazining yaratilishi va badiiy izlanishlar. Avtoreferat. – T, : O`zbekiston, 2002. – B. 191.

Toʻlan Nizom Oʻzbekistonning kelajagi hal boʻlayotgan jabhalarga nazar tashlashga shu jabhalarda halol va fidoyilarcha xizmat qilayotgan kishilar obrazini yaratishga alohida eʼtibor bermoqda. Shoirning shunday ulugʻ ijodiy maqsad bilan yashayotgani uning “Dovon” dostonida, ayniqsa, yaqqol koʻrindi.

Toʻlan Nizom shu asarni yozish jarayonida Qamchiq dovoni orqali Fargʻona vodiysiga olib chiquvchi zamonaviy avtomobil yoʻlining qurilishi oddiy qurilishlardan emas, balki Oʻzbekistonni xorijiy dunyoga olib chiquvchi, serquyosh mamlakatimizning obod va farovon boʻlishiga xizmat qiluvchi yangi ipak yoʻli ekanini tushundi. U shunday ulugʻ fikr bilan “changlangan” holda “Dovon” dostonida Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhodning izdoshlari boʻlgan yoʻlsozlarning qahramonona obrazlarini yaratdi.

Toʻlan Nizom yaqinda respublikamizdagi yana bir buyuk qurilish maydonlarida boʻlib, yoza boshlagan “Temir yoʻl” dostoni uchun boy hayotiy material bilan qaytdi.

“Majnuntol yigʻisi” deb nomlangan lirik qissa shoir Mirtemirga bagʻishlangan. Maʼlumki, Mirtemir hukmron kommunistik mafkura taʼsirida baʼzan zamonasozlik bilan asarlar yozgan boʻlsa-da, aslida u ulugʻ shoir edi. Uning sheʼriy isteʼdodi juda yuksak boʻlib, shoirning oʻtkinchi mayllardan ustun boʻlishini, vaqt sinoviga bardosh beradigan sheʼrlar bitishini taʼminlagan.

Mirtemir umrining soʻngida yaratgan sheʼrlaridan birida “Majnuntol tagiga oʻtqazing meni, Men uchun yigʻlasin, men yigʻlab boʻldim” degan majoziy taʼsir kuchiga ega boʻlgan ajoyib satrlarni bitgan edi. Shu satrlar Toʻlan Nizomga qattiq taʼsir qilgan. U ustoz aytgan majnuntol siymosida uning shogirdlarini, bu shogirdlar qatorida oʻzini ham koʻrgan va ustoz uchun “yigʻlashni” zimmasidagi burch deb hisoblagan. Shundan doston tugʻilgan.

“Girya” dostoni haqida ikki ogʻiz gap. Bu dostonning avtobiografik ildizi bor. 1992-yilda shoirning umr yoʻldoshi Hikmatxon toʻsatdan vafot etadi. Bu ogʻir judolik shoirni qattiq iztirobga soladi. U dard-alamlarini, sogʻinchini, muhabbatini qogʻozga toʻkadi. “Girya” Toʻlan Nizom asarlari ichida eng samimiylaridan biri, juda chuqur insoniy mazmun bilan sugʻorilgan. Unda ham fojiaiy ruh kuchli boʻlsa-da, umidsizlik yoʻq, aksincha, shoir eng ogʻir damlarda ham sevgi, vafo, sadoqat insonga tayanch boʻlishini tasdiqlaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davrga adabiy sayohat qilib, bu ulugʻ shoh va shoir haqida “Uch soʻz” dostonini yaratdi. Dostonda Toʻlan Nizom Bobur hayotini boshdan-oxir miridan-sirigacha hikoya qilib berishni maqsad qilib qoʻymaydi, faqat bu magʻlubiyat va zafarlarga, quvonch va qaygʻularga toʻla hayotning eng muhim oʻrinlarini aks ettirish orqali yaxlit poetik obraz yaratishga muvaffaq boʻladi. Toʻlan Nizom Boburning buyuk saltanat tuzishdan koʻzlagan insoniy maqsadlarini, yorga, onaga, vatanga muhabbatini, shoh, shoir, ota

sifatidagi insoniy fazilatlarini teran tahlil etadiki, natijada ko`z oldimizda bobosi Amir Temur qoni vujudida guvlab oqayotgan dilbar bir siymo namoyon bo`ladi.

To`lan Nizomning keyingi yillar ijodida istiqlolini o`z qo`liga olgan O`zbekistonimizning dastlab ulug` Bobur ta`riflagan mevazor – uzumzorlari, bugungi Andijonning bag`rini hamisha yashnatib yuboradigan ko`m-ko`k qir-adirlari, go`zal soddalik, mehnatkash qiz-juvonlari, yelkasi keng polvon yigitlari, endi unib-o`sayotgan yangi fermerlar va ularning yetishtirayotgan noz-ne`matlar, uzoqni yaqin qilgan dovon yo`llari, yangi barpo qilinayotgan shahar-qishloqlar mavzulari asosiy o`rinni egallaydi. U mahoratli dostonnavis sifatida yigirmadan ortiq doston yaratdi. To`lan Nizom Andijon, umuman, vodiy odamlari hayotini, mehnati va muhabbatini kuylaydi. Mashhur olim Naim Karimov juda topib aytganidek, uning she`rlaridan ana shu ajoyib kishilar mo`ralab turganday bo`ladi.

Andijon diyorumizda O`zbekiston xalq shoiri degan faxriy unvonga loyiq bittagina shoirimiz To`lan Nizom bor. Ushbu nomga sazovor bo`lishning o`zi shoirdan she`riyat maydoni ichra turmoq uchun ko`p mashaqqatli ijodiy mehnat talab qiladi. Ikkinchi tomondan, unga bobolarimiz asos solgan Andijon adabiy muhitining an`analarini shogirdlari-yu kenja avlod shoirlariga yetkazmoq mas`uliyatini ham yuklaydi. Biz sevimli shoirimizga ana shunday mas`uliyatli, xayrli ishni risoladagidek ado etishida kuch-quvvat, yangi-yangi ijodiy muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Shoirlikka qo`yiladigan talablar juda ko`p. Ana shu talablar ichida eng muhimi o`z xalqi va Vatanini she`r deb atalmish noyob topildiqa jo etib madh etish hisoblanadi. Bu talabni vijdon amri bilan ado eta olgan shoir esa chinakam baxtlidir. O`zbekiston xalq shoiri To`lan Nizom ana shunday shoirlar sirasiga mansub.

Vatan mavzusi To`lan Nizom har doim qalam tebratadigan mavzu. U Vatan ishq bilan sarmast, xalqimiz orzu-istaklari, quvonch-u dardlari bilan hamnafas shoir.

To`lan Nizom yuragida yulqinlangan ishq uning ko`p she`rlarida Vatan madhi tarzida namoyon bo`ladi. U Vatan haqida kuylar ekan, ona yurti jonajon Ozbekistonning suvratini chizishga harakat qiladi. Bu yurtning tengsiz go`zalligini shoir juda nozik his qiladi – uning tog`lari ham, daryo-yu dengizlari ham, bog`-u bo`stonlari ham shoir qalbida bir dunyo his-hayajon uyg`otadi. Keyingi yillarda shoir she`rlarida ona yurt jamolini konkret manzaralar, esda qoladigan hayotiy detallar orqali chizishga moyillik sezilmoqda. U hatto o`lkaning kichik bir bo`lagini, yurtning bir parchasini qalamga olganda ham undan butun o`lkaning muattar hidi anqib turadi:

Saraton chogi`da qovjirar yaproq,

Nay chalar ariqcha,
Harir jimirlar.
Ko`chmanchi ko`lanka ko`lday imillar
Bunda bog`na qilsin?
Shabada sarin.
Ketmon. Etik. Yana g`o`za qatorlar...
Quyoshdan qizg`anib qari chinorlar
Bag`riga tortadi dehqon qizlarni.¹

O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng yozilgan she`rlarda Vatan suratini chizishga yangi tamoyillar paydo bo`la boshladi. Shoir endi ko`proq Ona yurtning tarixdagi o`rni, insoniyat ma`naviyatini shakllantirishdagi xizmatlari haqida fikr yuritadi, o`tmishda o`tgan ulug` bobokalonlarimizning ruhlariga tavallo qiladi, ular bilan fikrlashadi. Endi uning she`rlarida Ona yurtimiz – ko`hna Turkiston yuksak va pokiza imon o`lkasi sifatida tasvirlanadi. Endi shoir Vatan jamolini Vatan yuragining suvrati orqali chizishga intiladiki, bu she`riyatda muayyan darajada yangi qadam bo`ldi.

To`lan Nizom she`rlarida Vatan mavzusi tabiiy ravishda ona mavzusi bilan birlashib ketadi. Ona ham Vatan kabi shoir uchun eng oily mavjudot.²

To`lan Nizom she`rlari qurilishida g`alati bir holat ko`zga tashlanadi. She`rning dastlabki misralari oddiy fikrlardan boshlanadi:

Mening ishim nadir, o`zim sezaman:
Sog` qalbimni o`zim har kun tilaman.

Ijod psixologiyasi tasviriga bag`ishlangan bu satrlardagi biroz me`yoridan oshgan proraizm (nasr unsurlaridan foydalanish) nazmiy ohanglarni susaytirganday bo`lyapti.

Keyingi ikki misrada ham ruh ko`tarilmaydi, pasayadi:

Oq qog`oz betiga so`zlar tizaman,
Dam nimadir, tunbo`yi ish qilaman

Shoirning asosiy gapi bu emas. Daromad gaplar. Yurakning gapini aytishga tayyorgarlik. Oxiri yurakda so`z portlaydi: “Men Vatanim yuragini chizaman”.³

Qahramonni bezovta qilgan, dilidagi yombi – shu. Vatan yuragini chizish. Topib aytilgan gap. Chinakam she`r. Qorong`u xonani birdan yoritib yuborgan chiroq kabi she`r bag`rida porlab

¹ Nizom T. Vatan surati. – T, : G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1996-yil, -B. 346.

² To`lak I. She`r – qalb yolqini. –T,: G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti. 1994-yil, -B. 21.

³Nizom T. Saylanma. Bahoriy maysalar. T: Sharq. 2007. – B. 346.

turibdi. Shoirning bu topildiq misrasi bag`rida yangi davr kishisining ruhiy-ma`naviy olamiga xos sifatlar bo`y ko`rsatmoqda.

Shoirlik dardiga chalingan To`lan Nizom nima uchun qirq yildan beri “Sog` qalbmni har kun o`zim tilaman” deya iztiroblar cheka-cheka she`r aytib kelmoqda? Buning boisi bitta – tabiat To`lan Nizomga bir ishq ato qilgan. Bu ishq yuragini to`la egallagan, yuragigina emas, butun vujudini chulg`ab olgan. Uning otashi shoirga tinchlik bermaydi, uni hamisha bedor bo`lishiga o`zini hamisha safarbarlik holatida his qilishga undaydi. Bu ishq – Vatan ishq, yer ishq, el-u yurt ishq, ona ishq, do`stlar va qarindoshlar ishq, inson ishq.

Faryodimni eshitsin jumla jahon,
Qo`lda qalam, tilda she`rim, bag`rim qon.
Ishqim – Vatan, ishqim – tuproq, ishqim – xalq,
Do`stim esa dunyodagi haq inson!

Hamid Olimjondan boshlab ikki daryo – Amu bilan Sirdaryoni Vatan timsoli sifatida ta`riflash an`ana tusini olgan. To`lanboy ham shu yo`ldan borib Vatan haqidagi she`rida “Ikki oqar daryo – Amu bilan Sir” deb yozadi va shu zahoti “Birisi Navoiy, birisi Bobur” deya sodda, ammo kutilmagan, o`ta hayotiy, tabiiy, original tashbehlarni taqdim etadi: ayni shu tashbeh tufayli she`rning chiroyi yana-da ochilib ketadi.¹

Ona haqidagi she`rda judolik iztiroblari izhor etilar ekan, “Ona nomli zo`r g`am bormikan, onasiz ham olam bormikan, she`r aytgim kelyapti, onajon!” satrlariga kelganda qalb bir silkinib ketganday bo`ladi. Bular o`ylab yasalgan misralar emas, sodda, samimiy qalb qa`ridan tabiiy tarzda otilib chiqqan chin dil rozlaridir.

To`lan Nizomning “Humo” dostoni Vataninmiz mustaqilligining besh yilligiga bag`ishlangan. Asar yurtimizdagi olamshumul o`zgarishlar badiiy idrok etilganligi bilan ajralib turadi.

Uchib kelgan Humo qush,
Ko`chib kelgan Humo qush.
Boshing tillomi, kumush,
Qushim, xush kelibsan, xush!

Shoirning O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining o`n ikki yilligiga bag`ishlangan “Dovon” dostonida o`zbek yo`lsozlarining qahramonona mehnati, qudratli xalqimizning yuksak marralari osha buyuk kelajak sari intilayotgani tasvirlanadi. Asar bosh qahramoni yurtboshimiz Islom Karimovning qizg`in, ulkan bunyodkorlik ishlari samimiy satrlarda tarannum etilgan.

¹ Nurmonov A. Istiqlol kuychisi. Andijonnoma. – 2008, 15-noyabr soni.

Endi biz mustaqil davlat ekanmiz, avvalambor kommunikatsiya sohasini yo`lga qo`yishimiz darkor. Qamchiq dovoni orqali qurilgan yo`limiz ochildi, shu bilan birga bizning istiqbolimiz, baxtimiz ochildi. Darhaqiqat, yurtboshimiz ta`kidlaganlaridek, yo`llar ochilsa, baxtimiz ham, istiqbolimiz ham ochiladi, gullab-yashnab ravnaq topadi.

Prezidentimiz dastlabki yillardayoq biz tanlagan yo`l o`zimizga xos va o`zimizga mos yorug` yo`llar ekanligini qayta-qayta ta`kidlaganlari yodimizda. Darhaqiqat, o`tgan yillar imtihoni O`zbekiston tanlagan yo`lning naqadar to`g`ri ekanligini isbotlab berdi. Bu yo`llar qaysi yo`llar, ular bizni qayerga eltdi va eltmoqda?

Eng buyuk saodat – Vatan o`z erkiga, o`z tiliga, hurligiga ega bo`ldi. Yer o`z egalariga, xalqqa berildi. Haqsiz mehnatkash el mulkdor bo`ldi, bu esa chindan ham Allohdan bandasiga in`om etilgan mo`jiza kabi edi.

Ta`lim sohasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi oqilona ishlab chiqildi va hayotga joriy etildi. Endilikda milliy kadrlarimiz dunyo ko`z oldida voyaga yetmoqdaki, ular qo`lida kelajagi buyuk bo`lgan Ozbekiston davlati gurkirab yashnamoqda.

Eng muhimi, so`nish xavfi bo`lgan milliy qadriyatlarimiz birdan uyg`ondi, istiqlol unga yangi jon ato qildi. Ulug` bobokalonlarimizning ruhi bizga madadkor bo`ldi. Chunki davlatimiz rahbari, avvalo, olamshumul ishlarni aziz-avliyo ajdodlarimizning xarobazor bo`lib yotgan muqaddas ziyoratgohlarini e`zozlashdan, qayta tiklash, qurish, obod qilishdan boshladi. Sohibqiron Amir Temur xotirasiga qilingan beqiyos ishlar, Ismoil al-Buxoriy, Naqshbandiy, Ahmad al-Farg`oniy, Moturudiy, Burhoniddin Marg`inoniy, Termiziy kabi ulug` zotlar qadamjolari obod qilindi. Elimizda Abdulla Qahhor, G`afur G`ulom, Zulfiyaxonim kabi zotlarning nomi yana-da ulug`landi. Ular xotirasiga xalq kelib hurmat-ehtirom bajo keltiradigan bog`-u bo`stonlar yaratildi. Umr bo`yi ana shu mustaqillikni orzu qilib, shu ulug` yo`l, maqsad uchun, buyuk o`zbek xalqining ozodligi uchun shahid ketganlar – qatag`on qurbomlari nomi abadiylashtirildi. Pirlar ruhi rozi-rizosidan kuch va shijoat olib mustaqillikning nurli dovonlari sari otlandik. Kelajak avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish ishqida kuyib-yonib yashamoqdamiz, mehnat qilmoqdamiz, natijasi esa bisyor.

Birgina Farg`ona vodiysi yo`llarini keyingi yillarda ko`rganmisiz? Qadim Qo`qondan markaziy Farg`ona yerlarining qoq o`rtasidan kesib o`tadigan Andijon yo`llaridan yurganmisiz? Yoki go`zal Namangan viloyati bilan Andijonni bog`laydigan gullar bilan bezangan katta avtoyo`ldan o`tganmisiz? Andijon va Farg`onani bog`laydigan Quva tekis yo`llaridan yurib, ko`nglingiz zavq-shavqqa to`lgandir. Daryo va anhorlarga, soy va ariqlar ustiga qurilgan metin, chiroyli ko`priklarga bir nazar tashlang-a, Asakadagi mashina zavodi yonidan o`tib, Asaka “Cho`ntak” oromgohidagi baland supaga chiqib, bepoyon bog`-rog`larga, cheksiz paxta

maydonlari va bug`doyzorlarga nigoh tashlang. Yangi zamonaviy Asaka shahrini kezib chiqing, odamlar orasiga kiring, suhbatlashing, ularning dil so`zlariga quloq soling. Man sizga istiqbol nashidasi, mana mustaqillik samarasi!

Shoir dostonlaridan birini “Vatan ichra bir Vatan” deb nomlagan. Ushbu doston O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining o`n yilligiga bag`ishlanadi. Vatan, xalqi ishq bilan yonib yashayotgan har bir inson o`z Vatanini kindik qoni to`kilgan, voyaga yetgan muqaddas dargoh timsolida ko`radi. Biz ham To`lan Nizom kabi jonajon O`zbekistonimizni Shahrixon timsolida ko`ramiz.

Doston Shahrixonni shunchaki ta`rif-u tasvirlashdan iborat bo`lib qolmay, unda shu qutlug` ma`voning tarixi, unda yahsayotgan yovqur, tanti va samimiy insonlarning el-yurt oldidagi xizmatlari, ushbu dargohda tug`ilib yashab o`tgan bir qancha nomdor mehnatkash kishilar, olim-u fuzalolarning mamlakatimiz kamolotida tutgan o`rinlari ro`y-rost ko`rsatilgan. Shahrixonsoyning maftunkor ko`k-u tarovatini, u yerda yashayotgan mehrdaryo kishilarning iliq nafasini to`liq his qilasiz. Shahrixon benazir san`atkorining, dovrug`i yetti iqlimga ketgan sohir pichoqchi-yu chevarlarining, mohir oshpaz-u qandolatchilarining mahoratidan voqif bo`lasiz.

Butun doston davomida shoirning Shahrixon farzandi ekanligidan faxrlanish tuyg`usi yetakchilik qiladi. Quyidagi satrlar esa uning ana shu tuyg`u haqidagi e`zoz va e`tirofi desak haqmiz:

Qarshimda ro`baro`n yana bir dovon,
Belga quvvat bersa o`zbek yopgan non.
Alqab tursa onam – jon O`zbekiston,
Yo`lim ravon ochsa Aloh mehribon,
Holatim chizmakda Behzod, Moniyman,
Men To`lan Nizomiy – shahrixoniyman.¹

Shoir To`lan Nizom yoshlik davrida yozgan she`rlaridan birida: “Men emasman kechagi”² degan edi. Bu satr uning buguniga juda mos tushadi. Sababi jamiyatdagi, siyosiy va adabiy muhitdagi vaziyat, yo`nalish unga ham o`z ta`sirini ko`rsatgan, she`rlar darajasi ham shunga yarasha bo`lgan. Istiqlool shabadasining esishi shoir qalbini tag`in uyg`otdi, mudroq hislarni sergaklantirdi. “Chaman ichra” nomli kitobga she`riyat bo`stonida o`ziga xos ovoz bilan kuylayotgan shoirning eng yaxshi she`rlaridan biriga e`tiboringizni qaratamiz:

Hijron, g`amda sog`intir uzoq,

¹ Nizom T. Bu yo`llar yangi yo`llardir. Hurriyat. 2008. –N 31

² Nizom T. Chaman ichra. –T.: Cho`lpon. – 1994, -B. 94.

Dog`lab-dog`lab hayotga boshla.
Ta`nalardan ko`zimni yoshla,
G`azab bilan yuzlarimga boq!

Qaqshamayman ayrilib zor-zor,
Ishq ipiga tushsa ming tugun.
Faqat meni tirik o`ldirib,
Yot ko`ngilga o`t solma zinhor!..

To`lan Nizom she`rlariga badiiy jihatdan puxta ishlov berishga harakat qiladi. U ko`p hollarda original sifatlashlar, yorqin istioralar, kutilmagan o`xshatishlar qo`llaydi, klassik she`riyatimiz xazinasidagi tasvir vositalaridan ham keng va unumli foydalanadi. Shoir ijodini olma daraxtiga o`xshatish mumkin. Avval yaproq yozdi. So`ng gulladi. Bir shoxda yetilgan meaning shakli shamoyili maza ta`mi o`rtasida farq bo`lganidek, shoir she`rlarida ham badiiylik saviyasi turlichadir.

She`riyat shunday qiziq bir olamki, uning iqlimi va tabiatini oldindan anglash qiyin. U har bir qalbdagi o`zgacha zuhur bo`ladi. Mashhur tatar shoiri Xodi Toqtosh ta`biri bilan aytganda, uni har bir qalb o`zidagi yangilantiradi. Mana shu jarayon shoirimiz qalbida o`zgalarnikidan farqlidir. To`lan Nizomning Vatanga bo`lgan muhabbatini, munosabatini uning she`rlaridan, yozgan asarlaridan bilib olishimiz mumkin. Yuqorida ko`rib o`tganimizdek, uning Vatanimiz mustaqilligiga bag`ishlab yozilgan bir necha asarlarini ko`rib chiqdik. Yana ta`kidlab o`tishimiz mumkinki, Vatanimiz mustaqilligining besh yilligiga bag`ishlangan “Humo” dostonida yurtimizdagi olamshumul o`zgarishlar badiiy idrok etilgan. Yana mustaqilligimizning o`n ikki yilligiga bag`ishlab yozilgan “Dovon” dostonida o`zbek yo`lsozlarining qahramonona mehnati, qudratli xalqimizning yuksak marralar osha buyuk kelajak sari intilayotganini guvohi bo`lamiz. Shoirning O`zbekiston mustaqilligining o`n olti yilligiga bag`ishlangan “Vatan ichra bir Vatan” deb atalgan dostonida esa Shahrixon timsolida shoir go`zal Vatanimizga nisbatan mehr-muhabbatini ushbu dostonida samimiy satrlar orqali ifoda etgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, taqdim etilayotgan she`riy guldastalar-u, shoir yaratgan asarlarda uning shoirlik sifatleri ham, insoniy fazilatlari ham aks etgan. To`lan Nizom Bo`z deb atalmish oils bir go`shadan turib, butun respublikamizdagi she`riyat ixlosmandlariga tatiydigan asarlar yaratishda davom etmoqda.

Vatanni sevmok uchun uni bilmoq kerak. Bilish, bilim, vatanparvarlik va millatparvarlikning bosh manbayidir. Bilimdon, o`z kasbining ustasi bo`lgan kishigina o`z taqdirini Vatan taqdiri bilan bog`lay oladi.

Shunday fidoyi insonlar safida To`lan Nizomning borligi quvonarlidir. Shoirning nafaqat she`rlarida, balki dostonlarida ham shunday milliylikni vatan ozodligini kuylanganini ham guvohi bo`lamiz. Shoirdan keyingi ijodida bundan-da yaxshi ijod mahsullarini kutib qolamiz.

II bob. To`lan Nizom dostonlarida umuminsoniy qadriyatlarning milliy xarakterlar talqinidagi o`rni.

II. 1. Shoir dostonlarida tarixiy shaxslar obrazi xarakteri talqini.

XX asr o`zbek adabiyotida turkiy xalqlar tarixidan oltin nurlarini sochib turuvchi Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Ahmad Farg`oniy, Bahovuddin Naqshband, Abduxoliq G`ijduvoni, Amir Temur, Ulug`bek, Navoiy, Bobur, Mashrab, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi yulduz siymolarning hayot yo`llarini badiiy talqin etuvchi asarlar yaratildi. Bu asarlarning dunyoga kelish vaqti har xil bo`lishiga qaramasdan ularning aksariga bitta narsa – sho`ro siyosati soya tashlab turadi. Shuning uchun ham ularda tarixiy voqelik, tarixiy shaxs obrazi haqqoniy aks ettirilgan, deyish qiyin. Xalq og`zaki ijodida badiiy tajassumini topgan tarixiy siymolar orasida air Temur va Bobur alohida mavqega ega. Bu har ikki shaxs haqida ular tiriklik paytidayoq og`zaki va yozma adabiyot namunalari yaratilgan.

Tarixiy shaxs obrazini yaratish yo`lida o`zbek shoirlari olib borgan izlanishlar, avvalo, doston janrining tabiatiga bog`liq. Agar so`nggi o`n yillikda doston janrida boshqa safdoshlariga qaraganda barakali ishlagan To`lan Nizom ijodiga nazar tashlasak, qiziq bir holni ko`ramiz. U garchand shu davrda bir tipdagi dostonlarni yozgan bo`lsa-da, ularning birlarini lirik qissa, ikkinchi guruhini esa doston deb atagan.

Keyingi yillarda tarixiy shaxslar timsolini yaratishga qiziqishning kuchayib borayotganligi ham ruhiyat olami tasviri bilan bog`liq. Bu jihatdan olganda E. Vohidov, A. Oripov, R. Parfi, Muhammad Ali, H. Xudoyberdiyeva, U. Azim, Sh. Rahmon, X. Davron, M. Yusuf, Z. Mirzayeva, H. Ahmedova, A. Boyqo`ziyev kabilarning izlanishlari yaxshi samara berdi. Ular ijodida Yassaviy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira kabi ulug` allomalr, shuningdek, XX asr ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etib, davrning og`riqli nuqtalaridan ahli jahonni ogoh etgan V. Mayakovskiy, G. Lorka, R.Neruda, N. Hikmat, kabi so`z san`atkorlari timsollari katta mahorat bilan chizildi. Bemalol aytish mumkinki, ular tarixiy shaxslar timsollari vositasida

bu kishilar qalbini bezovta qilayotgan masalalarni ham ko`rsata oldilar. Bu masalalarning bitta tomoni bo`lsa, ikkinchi tomoni tarixga va tarixiy shaxsga xolis baho berish, tarixiylik prinsiplariga to`la amal qilish, ular ijodida o`zining yaxshi samaralarini ko`rsatmoqda.

Masalaning ushbu tomonlariga diqqatni qaratayotganimizning boisi shuki, sho`rolar siyosati hukmronligi davrida tarixga qora ko`zoynak ostidan qarash urf bo`lgan, ayniqsa, Temur, Bobur, Umarxon kabi shaxslar faqat hukmdor sifatida qaralib, ularning peshonasiga zolimlik tamg`alari bosilgan bo`lsa, Yassaviy, Naqshband, Boqirg`oniy, So`fi Olloyor esa diniy-mistik adabiyotning vakillari so`fizm targ`ibotchilari sifatida qaralib, ularga bid`at tarqatuvchilar tamg`asi bosildi.

Istiqlol bunday noto`g`ri qarashlarni bir xas kabi uchirib yubordi. Bizning dinga, uning targ`ibotchilariga munosabatimiz o`zgardi. Ularga armonli dunyoning armonli farzandlari sifatida qarash va shunday talqin qilish keyingi yillar she`riyatida ustuvorlik qila boshladiki, bu she`riyatdagi tozarish jarayonlaridan darak beruvchi bir holat sifatida qimmatlidir.

Ijtimoiy-siyosiy va ma`naviy hayotdagi o`zgarishlar adabiyotda ham bir qator sifat o`zgarishlarini yuzaga keltirdi. Istiqlol arafasida shoir va yozuvchilarimizda tarixga, tarixiy mavzuga qiziqish, ayniqsa, kuchaydi. Tarixiy o`tmishni badiiy mujassamlashtirishga qaratilgan roman va qissalar, drama va dostonlar maydonga keldi. Boshqa janrlarda bo`lgani kabi, dostonchilikda bu borada yutuqlar qo`lga kiritildi. Istiqlol arafasi va istiqolol yillarida tarixiy siymolarning shaxs sifatida murakkab tomonlari talqini ijodkorlarning diqqat-e`tiborida bo`ladi. Abdulla Oripovning “Sohibqiron”, Usmon Azimning “Halil sulton”, Ma`ruf Jalilning “Amir Temur qissasi” kabi asarlarida ifoda etilagn tarixiy siymolar, toj-u taxt shavqi bilan yashagan hukmdorlar sifatida emas, balki eng avvalo, o`z davrining fidoyi va mash`al farzandlari sifatida talqin etildi.

Buyuk tarixiy shaxslar haqida, muayyan tarixiy manbalar asosida yozilgan asarlardan tashqari, folklor namunalari ham borki, ular umri yozma asarlarga nisbatan uzoqroq bo`lishi mumkin. Buning sababi shundaki, xalq bu shaxslar obrazi orqali o`z orzu-armonlarini, idealini ifodalaydi; bu guruhdagi asarlar xalqqa ruhan yaqin bo`ladi.

So`nggi yillarda tarixiy mavzuda yozilgan dostonlardagi e`tiborga molik jihat shundaki, ularga, avvalo, tarixiy shaxslarning inson sifatidagi fazilatlarini ko`rsatishga e`tabor berildi, ularning ruhiy olamidagi ziddiyatlar tarixiy jarayonlar bilan bog`liq holda ko`rsatila boshlandi. Bu adabiyotimizda keyingi yillarda ro`y bergan yangicha yo`nalish, yangicha tamoyilning natijasidir. Ismoil To`lak “So`nggi kecha” dostonida Bobur hayotini umuman yoritishni maqsad qilib olmagan, shoir so`nggi bir kechada Bobur xayolidan kechgan o`ylar, mulohazalar, xotiralar tasviri orqali uning shaxs sifatidagi qirralarini ko`rsatib bergan. Saltanatning qudratli sehri bilan

emas, balki valiahdlik burchini da`vati bilan Hindistonga brogan hukmdor qalbidagi ziddiyatlarni tasvirlash shoirning asosiy maqsadini tashkil etgan. Ismoil To`lak yaratgan Bobur obrazida shohlikni darveshona kayfiyat bilan muzayyan etgan qalb kechinmalari ustuvorlik qiladi.

To`lan Nizom Boburga bag`ishlangan turli janrlardagi asarlar bilan tanishar ekan, uning, eng avvalo, ruh kishisi, kayfiyat rassomi, taqdir bo`ronlari domida qolib, yo`l va najot axtargan darveshvasht shaxs sifatidagi tomonlariga e`tiborini qaratgan. Uning “Uch so`z” dostonida Boburning “Tamomi umrida Boburga uch so`z aytibdur: Biri so`kinch-u biri qattiq-u biri yolg`on” degan satrlari peshso`z bo`lib xizmat qilgan.

Bu satrlar ma`lum ma`noda Boburga o`zi tomonidan berilgan baho edi.

To`lan Nizomning maqsadi Bobur shaxsi bilan bog`liq jangnomalarni madh etish emas, balki Vataniga, eliga, siym-u zarga shoirona darveshlik bilan munosabatda bo`lgan dilbar shaxs xarakterini ochishdir. Shuning uchun ham u Boburning Vatanni tashlab chiqib ketish voqealri tasviriga alohida ahamiyat beradi.

Tarixiy mavzuga bag`ishlangan asarlarda faqat tarixiy shaxslarninggina tasvirlash shart emas. Aksincha tarixiy shaxs xarakterini teran ochish maqsadida shoir badiiy uydirma mahsuli bo`lgan personajlardan salmoqli foydalanishi mumkin. To`lan Nizom doston badiiy to`qimasiga Kosoniy, Tanbal singari uydirma obrazlarni kiritib, Boburning tarixiy shaxs sifatidagi mohiyatini ochishga erishgan desak, yanglishmagan bo`lamiz.

Masalan, Tanbalning bir paytlar Bobur tomonidan in`om etilgan qilich bilan uning o`zini yaralashi doston muallifining topilmasi bo`lib, mana shu obraz yordamida Bobur obrazining fojiaiy nuqtasini ochib berishga erishgan. Shunday qilib, aytish mumkinki, tahlilga tortilgan asarlarda tarixiy shaxs obrazini yaratish usul va vositalaridan biri asar to`qimasiga yig`ma obrazni olib kirish va uni tarixiy shaxs obrazi bilan baqamti tasvirlashdir.

Xalq dostonlariga xos tasvir usullaridan Bobur obrazini yaratishda ham foydalanilgan. Shoir xalq dostonlariga xos ishqiy sarguzashtlarni keltirish bilan Boburning aholi o`rtasida qozongan obro`-e`tiborini ko`rsatmoqchi bo`lgan. Uning Bubna obrazi bilan bog`liq voqealarni asarga kiritishdan maqsadi ayol muhabbatining tovlamalarini folklorga xos mubolag`aviy tasvirlarda ifodalshdir. Dostonning ushbu sahifalarida qahramonlik eposlariga xos xususiyatlar ustuvorlik qiladi. Bu, ayniqsa, Bubnaning Boburga nisbatan g`oyibona muhabbatida, bu yo`lda har qanday qiyinchiliklarga tik boqib, erkak libosida jangga kirish lavhalarida ko`rinadi. Askar libosidagi qizning beqiyos jasorat-u olgan jarohatidan xabar topgan Bobur unga hamdardlik bildiradi.

To`lan Nizomning “Ruhi ravonim” dostoni Mashrab haqida yozilgan boshqa asarlardan farq qiladi. Biz bu dostoniga munosabat bildirish asnosida Mashrabning mutasavvuf shoir

bo'lganiga alohida ahamiyat berdik. Doston muallifining maqsadi ham shu edi. To'lan Nizom Muhammad Ali singari Mashrab nomi bilan bog'liq latifalarga ijodiy yondashib, ularni asar sujetiga olib kiradi. Har ikki shoirning bundan kuzatgan maqsadi xalq og'zaki ijodi vositasida tarixiy haqiatni badiiy haqiqatga aylantirishdir.

“Ruhi ravonim” ning yaratilishiga turtki bo'lgan omillardan biri muallifning Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiya safida Afg'onistonga borganligi, uzluksiz davom etayotgan urush tufayli nafaqat tiriklarning xonadonlari, balki o'liklarning sag'analari ham vayron bo'lganligini o'z ko'zi bilan ko'rganligidir. Shoir vayron bo'lgan qabrlar poyida tiz cho'kib, sukut og'ushida turar ekan, mutasavvuf shoir ruhi bilan xayolan muloqotda bo'ladi. To'lan Nizom Muhammad alidan farqli o'laroq, ruh manzillari sari intilayotgan qalb faryodlarini berish vositasida tarixning mahzun manzaralarini chizmoqchi bo'ladi. Shu maqsadda bo'lsa kerak, asarda kechinmalar ta'siriga keng o'rin berilgan.

Buyuk bobolarimiz etagidan tutmoq, ularning xayrli va ezgu ishlaridan hayratga tushmoq, g'ururlanmoq bizlarga otalardan qolgan merosdir. O'zbekning biror farzandi yo'qki, u o'zining ulug' bobolarini ruhan yo'qlamagan, izlamagan bo'lsin. Xalqimizning fidoyi farzandlaridan biri Zokirjon Mashrabovni shu ma'noda har qancha e'zozlasak, hurmat qilsak arziydi. Aytish mumkinki, Zokirjon aka o'zining mehnatsevarligi va favqulodda shijoati bilan taqdir taqozosi ila Vatanidan mosuvo bo'lgan Zahiriddin Muhammad Boburni Andijon bog'lariga boshlab keldi. Bobur bahona xalqimizning boshqa buyuk farzandlari xotiralari ham ko'ngillarimiz qatidan joy oldi. Bobolarimizni qadrlash bizlarga juda ham zarur. Bizdan ham ko'ra ko'proq ertamizning suyanchilari bo'lgan farzandlarimizga kerak. Zokirjon Mashrabov bu yo'lda beminnat xizmat qilib kelmoqda.

U rahbarlik qilayotgan xalqaro Bobur jamg'armasi va xalqaro Bobur ilmiy ekspeditsiyasi madaniyatimiz tarixini, merosimizni o'rganish kabi e'tiborga sazovor ishlarni amalag oshirib kelmoqda. Shoirning “Ruhlar qasidasi” dostoni mana shu ma'noda ardoqalshga arziydigan asardir.

To'lan Nizom ushbu asarda adabiy mistifikatsiyadan ham foydalangan. Mistifikatsiya badiiy tasvir unsurlaridan bo'lib, biror narsaga ataylab sirli tus berish, “asarning muallif tomonidan atayin boshqa bir shaxs (yo haqiqatda mavjud, yo to'qima)ga tegishli, o'zga shaxs tomonidan yozilgan qilib ko'rsatilishi. Muallifning yashirin qolishga intilishi jihatidan adabiy mistifikatsiya anonym (imzosiz e'lon qilingan yoki tarqalgan asar) va taxallus qo'llash (ya'ni yashirin qolish maqsadida asarni taxakkus bilan e'lon qilish)ga yaqin. Ulardan farqli tomoni shuki, adabiy mistifikatsiyada asar nisbat berilayotgan muallifning uslubi, ruhiyati, dunyoqarashi va shu kabilar individual jihatlarni yaratish orqali real muallifdan tamom o'zga muallif obrazi

vujudga keltiriladi”.¹ Demakki, adabiy mistifikatsiya yo`q narsani bor qilib ko`rsatish, o`zi yozgan asarni boshqa odam yozganligiga ishontirishdir. “Uch so`z” va “Ruhi ravonim” dostonlarida Bobur va Mashrab nomidan yozilgan g`azallar mistifikatsiya namunalari bo`lib, muallif bu bilan qahramonlarning u yoki bu masalaga, voqeaga bo`lgan munosabatini va shu tasvir vositasi orqali qahramonlar sajjiyasi (xarakteri)ni belgilashga harakat qilgan. Aniqroq aytganda, mistifikatsiya ham bu dostonlarda tasvir vositasi va xarakter yaratuvchi omillardan biri sifatida xizmat qilgan.

“Ruhi ravonim” dostoni markazidagi Mashrab – Ruh kishisi. Uning qalbida yorga bo`lgan muhabbatdan ko`ra Yaratganga bo`lgan muhabbat baland. Muallif undagi komillik belgilarini ishq ilohiyga bo`lgan muhabbatida ko`radi va shunday talqin qiladi.

Shoirning “Cho`lpon”<sup>2</sup> dostoni ham ancha jozibali chiqdi. Doston “Sharq yulduzi” da e`lon qilinishi bilanoq o`ziga e`tiborni jalb qildi. Cho`lpon juda ulug` shoir va ulug` shaxs. Uning hayoti va fojiali, o`ta ziddiyatli zamonda kechdi. Axiyri, bu buyuk shoir qirq yoshga kirib-kirmay hayotdan ko`z yumishga majbur bo`ldi. Ammo uni hayotdan mahrum qilishdan avval o`n yil mobaynida uning unini o`chirishga, g`ururini sindirishga urindilar. Albatta, bu muttasil haqoratlar, muntazam kamsitishlar ham uning fojiasini yana-da chuqurlashtirgan. Aytmoqchimizki, Cho`lpon ham Abdulla Qodiriyga o`xshash shunaqa zabardast siymoki, uning jonli qiyofasini yaratish uchun Shekspirona ilhom, Shekspirona qalam, Shekspirona qudrat kerak.

To`lan Nizomning “Cho`lpon” dostonidagi shoir “xalq dushmani” ham, “milatchi” ham emas, balki xalqning shon-shavkatini tashkil etuvchi siymolardan biridir.

Dostonning “Zilzila” deb nomlanuvchi dastlabki faslida 1902-yili Andijonda bo`lib o`tgan va yuzlab xonadonlarni vayronaga aylantirgan zilzila tasvir etiladi. Muallif zilzila tasviriga bejiz murojaat etmagan. Agar zilzila insoniyat irodasidan tashqarida ro`y beruvchi kulfat bo`lsa, 1937-yilda cho`lpon kabi sofko`ngil, yurtim deb, elim deb yashagan millionlab kishilarning mahv etilishi Stalin va stalinchilar tufayli sodir bo`lgan. Shoir zilzila tasvirini majoziy obraz darajasiga ko`tarib, undan XX asrda ro`y bergan dahshatli fojiani ochishda foydalangan.

To`lan Nizom ustoz Mirtemirga bo`lgan hurmatini va ustozining shu hurmat tuyg`usi bilan yo`g`rilgan obrazini “Majnuntol yig`isi” deb nomlangan asarida yorqin tasvirladi. Muallif bu asarining janrini lirik qissa deb belgilagan. Umuman, u faqat “Majnuntol yig`isi” ni emas, balki “Botmay qolgan oy”, “Oq gul” asarlarining janrini ham lirik qissa deb nomlagan.

¹ Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug`ati. – T: Akademnashr. 2010. B. 173.

² Nizom T. Cho`lpon. – T: G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1993.

Mirtemirning “Sursat” liro-epik asari ayrim-ayrim lirik sheʼrlardan tashkil topganiga qaramay, unda yagona sujet va konflikt bor. Bu sujetni lirik sujet deb atash toʻgʻri boʻlganidek, bu konfliktni ham lirik konflikt deyish maqsadga muvofiq.

Butun umri davomida mustabid tuzumning gurzilarini koʻrib, bilib yashagan shoir soʻnggi sheʼrlarining birida:

Majnuntol tagiga oʻtqazing meni,
Men uchun yigʻlasin, men yigʻlab boʻldim,

- deb yozadi. Ana shu satrlarda ifodalangan fikr Toʻlan Nizomning Mirtemir obrazini yaratish, xarakterini ochishga poetik bir kalit boʻlib xizmat qilgan.

Nega ustoz shoir oʻz dard-alamlarini ifodalash uchun majnuntol obrazini tanlagan? Toʻlan Nizom oʻzini bezovta qilgan ana shu savolga lirik qissasida javob topishga urinadi. Mirtemir qalbidagi sheʼrga aylangan va aylanmagan dardlarini ifodalash uchun unga vosita qilib majnuntol obraziga murojaat etadi. Biz asarni oʻqish jarayonida majnuntol obrazi bilan Mirteninmirning oʻzaro tutashib ketganini koʻramiz. Majnuntol tarixiy shaxs – Mirtemir obrazining badiiy mujassamlanishida faol ishtirok etadi. Ushbu asarning eʼtiborli oʻrinlaridan biri shundaki, muallif har bir faslning vazn jihatidan rang-barang va Mirtemir sheʼrlariga ohangdosh boʻlishiga harakat qilgan. Bu satrlar bilan uygʻunlashgan, muzayyanlashgan fasllarda Mirtemir obrazi qirralari yana-da yorqinlik kasb etgan.

“Majnuntol yigʻisi”, “Oq gul” asarlari markazidagi qahramonlar biz bilan – zamondosh boʻlgan tarixiy shaxslar. Ularga ortiqcha boʻyoqlarni sarflash ham hayotiy haqiqatni buzishi mumkin. Har holda bu borada Toʻlan Nizom meʼyorni saqlashga, aniq hujjatlar, jonli suhbatlar vositasida ular tabiatiga xos yetakchi tomonlarni ochib berishga harakat qilgan. Toʻgʻrirogʻi “Uch soʻz”, “Ruhi ravonim”, “Choʻlpon”, “Botmay qolgan oy” asarlaridagi obrazlar koʻproq toʻqima, ijodiy fantaziyaning mahsuli sifatida koʻzga tashlansa, “Majnuntol yigʻisi”, “Oq gul” lirik qissalari markazidagi qahramonlar tasvirida hujjatlilik yetakchilik qilgan.

Toʻlan Nizom – Mashrab mavzusiga qayta qoʻl urgan shoir. Muhammad Alining “Mashrab” dostonidagi mashrab tarixiy shaxsdan koʻra koʻproq toʻqima obrazga yaqin kelardi. Uning mutasavvuf qalbidagi ilohiy qirralariga zamona zayli bilan eʼtabor berilmagan edi. Toʻlan Nizom oldida tarixiy shaxs Mashrab obrazini yaratish vazifasi turdi. Bir qator tarixiy maʼlumotlarga, qolaversa, ijodiy fantaziyaga suyangan muallif Mashrabning mutasavvuf qalbini koʻrsatishga erishdi. Mashrab fojialari uning dostonida mahorat bilan ochildi.

Xullas, bu davr dostonchiligida mashhur siymoning har tomonlama yetuk badiiy obrazini yaratishga harakat qilindi. Bu davrda yaratilgan dostonlar asosida turgan shaxslarning xarakterlarini ochishda tarix faktrlariga suyanish tamoyili ustuvorlik qildi, ruhiy-psixologik tahlilga katta ahamiyat berildi.

II. 2. To'lan Nizomning "Uch so'z" dostonida Bobur Mirzo xarakteri talqini.

Temuriy hukmdorlardan bo'lgan Umarshayx Mirzoning bevaqt vafot etishi endigina o'n ikki yoshni qarshilagan yosh valiahd – Zahiriddin Muhammad Boburning boshiga turli sinovlar, aytish joiz bo'lsa, kulfatlarning yog'ilishiga sabab bo'ldi. Ulusni boshqarish tashvishi juda erta zimmasiga tushgan Bobur va uning hukumati ustida qora bulutlar aylana boshladi. Yosh bo'lishiga qaramay, ota makoni – bobosidan qolgan muqaddas tuproqni, yovlardan asrab-avaylashga qanchalik tirishmasin, temuriy shahzodalar o'rtasidagi tarqoqlik va sinfiy kurashlar, taxt uchun o'zaro kurashuvlar yovlar uchun ayni muddao bo'ldi. Hech kim, hatto tog'asi ham shunday paytda unga yelka tutmadi. Va tashqi dushman siquvi ostida ota yurti, ona diyorini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi.

Yurtdoshimiz – mohir sarkarda, shoh va shoir temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Boburning ayanchli taqdiri tarixi juda ko'p ijodkorlar tomonidan turli janrdagi asarlarda qalamga olingan. Xususan, Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanini tarixiy yo'nalishda bitilgan yirik va Bobur haqida batafsil ma'lumot beruvchi yetuk badiiy obida deb qarash mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Zahiriddin Boburning hayot yo'liga nazmda teran nigoh ila bir nazar tashlandiki, bu – vatandoshimizning butun boshli hayoti, faoliyati va ruhiy dunyosini bir butun holda yorqin bo'yoqlarda, bor bo'y-basti bilan tasvirga olgan portret sifatida maydonga keldi. Bu asar – To'lan Nizomning "Uch so'z" dostonidir. Shoir dostonida Bobur hayotini qalamga olish barobarida o'sha davr, muammolar, xalqning, millatning jamiyatdagi o'rni, kuchi kabilarni ifoda etish orqali milliy xarakterlar silsilasini yaratadiki, qahramonlarning asar syujetidagi harakati tugunni va voqealarning keng ko'lamda rivoj topishi uchun sharoit yaratadi.

“Har qanday san’atning mazmuni – voqelikdir. Binobarin, u xuddi voqelikning o’zidek, tunganmas va qurimasdir”¹.

Bu tunganmas va qarimas mazmunni adabiyot alohida bir usulda ifoda etadi. Adabiyot “obrazli tafakkur” dir. Bu ta’rifni birinchi marta fanga olib kirgan Hegel adabiyotning obrazlilikini mana bunday tushuntirib bergan edi: “Poetik tasvirni biz obrazli tasvir deb belgilay olamiz. Chunki u bizning ko’z oldimizda abstrakt mohiyat o’rniga uning konkret realligini qo’yadi”².

Yozuvchi ko’zimiz oldidan hayotning konkret manzarasini o’tkazishi kerak, toki shu manzaradan biz o’zimiz yozuvchi aytmoqchi bo’lgan fikrni fahmlab olaylik. Bu manzaraning ilmiy dalillardan katta farqi va afzalligi shundaki, bunday hayotiy manzara bevosita bizning hislarimizga ta’sir etadi, natijada biz tasvirlangan manzaraning ishtirokchisi bo’lib qolamiz.

Hayotning bunday konkret manzarasi obrazli tafakkurning bir sohasi bo’lgan adabiyotda o’ziga xos shaklda yaratiladi. Bu shaklning asosiy komponentlaridan biri xarakter hisoblanadi. “Xarakter – badiiy asar mazmunining shaklidir”³

To’lan Nizom o’zining Bobur siymosini badiiy talqin etgan “Uch so’z” dostonida asar mazmunini ko’rkamlashtirish maqsadida Bobur boshliq turli tarixiy shaxslar obrazlarini yaratish bilan birga turfa xil badiiy to’qima obrazlarni kiritadiki, asar mazmunining shakli o’zgacha ko’rinish oladi.

Shoir dostonida Bobur Mirzo timsolini xarakter darajasiga ko’tarishda tadrijiylikka amal qiladi. Ya’ni Bobur Mirzoning tug’ilishidan to kamolga yetguniga qadar uning xarakter-xususiyatini belgilovchi o’rinlar bilan boyitib boradi. Bu esa o’quvchi tasavvurida doston qahramonlari ruhiyatini yana-da yorqinroq va undagi voqealar bayonining yana-da jo’shqinroq shaklda aks etishini ta’min etadi. Shu tariqa kitobxon, yuqorida aytganimizdek, shoir aytmoqchi bo’lgan fikrni o’zi uqib oladi va xarakter darajasiga ko’tarilgan asar qahramonlari bilan qadam-baqadam birga yuradi. Quvonsa, quvonadi, azob cheksa, azoblanadi. Qahramon muvaffaqiyati – uning muvaffaqiyati, qahramon mag’lubiyati – uning mag’lubiyati.

Qutlug’ Nigorxonimning ko’zi yoriganini eshitgan Umarshayx Mirzo Axsikat qal’asidan shom chog’i yetib keldi va suyunchi ulashgach, bolasini qo’liga olib:

Chaqaloq boshida ota boshladi.

O’ng yonga shamshir-u, so’l yonga qalam

¹ Belinskiy V. G. Poln. sobr. soch. , t. 12, Gosizdat, 1926, s. 332.

² Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T: “O’qituvchi”, 1980. 133-b.

³ O’sha asar. 133-b.

Qutlug` Nigorxonim ko`zin yoshladi,
Qandaydir his eltib qalbini shu dam¹.

Dostonning ushbu satrlarida shoir qahramonning kelajagi va taqdirini (albatta, tarixiy omillar asosida) belgilab oladi va kunlar keladi, Bobur – buyuk sarkarda, Bobur – shoh, Bobur – shoir sifatida namoyon bo`ladi.

Xarakterlar yaratish yozuvchi, shoirning kishi psixologiyasini bilishi tasvirlay olishiga bog`liq.²

Dostonda Bobur qiyofasini yorqin ko`rishimiz uchun shoir uning butun umri davomidagi ichki dunyosi, ruhiyati tasvirini e`tibordan chetda qoldirmaydi. Bu esa qahramonning xarakter darajasiga ko`tarila olishiga qulay sharoit yaratgan.

Bobur – vafodor do`st. Bu dostonning quyidagi o`rnida yaqqol ko`zga chalinadi:

- Sardor, do`stim, yur ketdik bog`ga:
So`ngra aylanurmiz daryo qirg`og`in.
Nechun hayalllading kecha saboqqa,
Bobur koyib qo`ydi aziz o`rtog`in.
Tasodif yuz berdi, bemavrid o`lim
Sardor yosh joniga tashladi changal.
Bobur zor-zor yig`lar, ko`z yoshi lim-lim
Birinchi she`rini yozdi tong mahal.³

Do`sti Sardorning o`limi yosh Boburning bag`rini o`ydi. Bu tasvir Boburni vafodor do`st sifatida tasvirlash uchun zamin yaratdi.

Bobur – mehribon o`g`il. Otasi Umarshayx Mirzo jarga qulab vafot etgandagi ruhiy holatida ko`zga tashlanadi:

Sho`x daryo suviga boqayin,
Zam-zama qilsin-u, oqayin.
Oqmasam, o`zimni yoqayin,
Shoh otam, xon otam, voy otam.¹

¹ Nizom T. Saylanma. T: "Sharq", 1998. 188-b.

² Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T: "O`qituvchi", 1980. 134-b.

³ Nizom T. Saylanma. T: "Sharq", 1998. 191-b.

Shoir Bobur va uning yaqinlari tilidan aytilgan marsiya ko`rinishidagi satrlarni yaratishda folklor an`analariga suyanan bo`lib, bu orqali milliy xarakterlar talqinini yana-da chuqurlashtiradi.

Adabiy asar qahramoni ruhiyatini to`laqonli ochib bera olgan adibgina, o`z qahramonidan xarakter yarata oladi. Qahramon ruhiyatini tasvirga ololmagan yozuvchi danak mag`zidan emas, danakning o`zidan maza topishga urinayotgan kishiga o`xshaydi, danakning qadri esa ichida mazali mag`zi borligidadir.

Dostonda Bobur mehribon ota sifatida ham namoyon bo`ladi. Farzandi arjumandi Humoyun Mirzo kasallikka chalinib, yotib qolganda, uning atrofida aylanib, Ollohdan shifo tilaydi va Humoyun uchun jonini nisor etadi. Humoyun tez orada oyoqqa turib ketadi.

Dostonda ana shunday ijobiy xarakterlarni voyaga yetkazish barobarida Ahmad Tanbal, Uzun Qosim, Qavchin singari qilgan ishlari “itlik” hisoblangan qahramonlar ham keltiriladiki, asardagi ijobiy xarakterlar kitobxonning ardog`ida bo`ladi, va xarakterlararo kurash avjiga minadiki, bu konflikt asar voqealarini rivojlanishiga zamin yaratadi, asar voqealari tempining keskinlashuvini ta`minlaydi.

Yuqorida ta`kidlaganimizdek, xarakter – adabiy asarda mazmunning shaklidir. Chunki o`quvchi mazmunni dastavval va butunicha xarakterlar orqali biladi va hazm etadi. Shu sababli ham o`quvchi yodida boshlica xarakterlar qoladi.

Adabiy asarning boshqa komponentlari – tipik sharoit tasviri, uning ifodasi bo`lgan syujet va adabiyotning materiali hisoblangan til xarakter yaratishning vositasi vazifasini bajaradilar. Xarakter mazmunga nisbatan shakl bo`lsa, til xarakterga nisbatan shakldir.

Dostonda Boburning xarakter-xususiyatini to`la-to`kis ochib berish uchun xizmat qiladigan komponentlardan biri ham badiiy asar tilidir. Mazkur asar tilini umumiy tarzda haqiqatan boy, bo`yoqli, sodda, ifoda kuchi zo`r, ommaga anglashiladigan deya ta`riflash mumkin. Bu dostonning ifoda yo`sinini soddaligi, xalqonaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Qahramon fikrini to`la yetkaza olishi uchun xalq maqollari, iboralar, og`zaki nutq uchun xoslangan so`zlardan unumli foydalanilgan:

Jigarin kuydirib, achchiq g`am-qayg`u,
Otamlab yig`ladi Xonzodabegim.²

¹ O`sha asar. 193-b.

² Nizom T. Saylanma. T: “Sharq”, 1998. 192-b.

Ushbu o`rindagi “Jigarin kuydirib”, “Otamlab yig`ladi” birliklari og`zaki nutqqa xoslangan bo`lib, Xonzodabegim ruhiyatini ochib berish uchun yordam bergan. Otasining o`limidan keyingi Boburning tashqi va ichki dunyosi o`rtasidagi kurash doston syujetini yana-da mavjlantiradi. Bu holat Bobur tilidan aytilgan quyidagi xalq qo`shiqlari tipida yaratilgan she`rda o`z ifodasini topgan:

Elga shohlik nimadir,
Ummondagi kemadir.
G`arq bo`lurmi ertaga,
Yo bugun xalq o`rtaga
Olib yanchar tosh misol,
Otam edimi halol?
Otam kimdir, qanday jon?
Unda butunmi iymon?¹

Bobur Mirzo hali yosh bo`lishiga qaramay, otasining o`rniga shoh sifatida ko`tarildi, lekin uning yuqorida keltirilganidek ichki his-tuyg`ulari bilan konfliktga kirishishi yoshiga qaraganda ancha aqlli, zakovatli, kelajakdagi donishmand Boburga munosib bo`lgan yosh Bobur sifatida tasvir etilganidan dalolat beradi. Otasining qanday inson o`tgani: insof-diyonatli, halol, iymoni butun bo`lgani yoki bo`lmagani uni qiziqtiradi. Elga shohlikni yosh Bobur donishmandlarcha ummondagi kemaga qiyos etadi. Ertaga u xavfsiz suza oladimi yo g`arq bo`ladimi?

Shu tariqa u o`zining tahlikali hayoti va kelgusi izzatli kunlarini go`yo bashorat etadi.

O`g`lim, bulbul chamansiz,
Inson Vatansiz bo`lmas.
Lek Vatanni xor etgan
Kasning omadi kelmas.²

Umarshayx Mirzoning , keyin Bobur Mirzoning ham piri sifatida namoyon bo`lgan Kosoniy timsolining nutqida keltirilgan “Bulbul chamansiz bo`lmas, odam Vatansiz” xalq maqolining keltirilishi, birinchidan, ushbu timsol xarakterini individuallashtirsa(ya`ni maqol, hikmatli so`zlarni personajlar nutqida keng ishlatilishi qaysidir ma`noda uning donishmand inson

¹ Nizom T. Saylanma. T: “Sharq”, 1998. 194-b.

² O`sha asar. 210-b.

ekanligini ko`rsatib turadi), ikkinchidan, bu ham Bobur Mirzo kelajagiga ishora qiladi. Ya`ni keyinchalik Boburning boshiga falakning turli mushkulotlarining yog`ilishi, Vatandan ayro tushishi, “Har ishniniki ayladim xatolig` bo`ldi”, “...bu ne yuz qarolig` bo`ldi?” deya o`z-o`ziga savol berib, javob topa olmay, yalangoyoq tog`-u tosh kezib, keyinroq esa Hindistonda katta bir imperiyaga asos solsa-da, yuragining bir parchasi Ona yurtida qolib ketganini har lahza ta`kid etgan paytlarini avvaldan mana shu birgina xalq maqoli bilan muxtasar aylagandek tuyuladi.

Dostondagi Kosoniy timsoli garchi to`qima obraz bo`lsa-da, asarda Mirzo Boburning piri, donishmand bir valiy sifatida bo`y ko`rsatadi. U Boburga temuriyzodalarning eng so`nggisi u ekani, otasi ko`p nuqsonli inson bo`lganligi, bobosi Amir Temurning buyuk saltanatini birlashtirishi lozimligi, Vatanni yovlar qo`lidan ozod etishi kerakligi, agar shunday yo`l tutmasa, bobosining ruhi tinchimasligi kabi nasihatlarini qiluvchi piri murshid sifatida gavdalanadi. Bobur uchun dasturilamal sifatida yaratilgan “Risolayi Boburiya” kitobini taqdim etadi. Bobur qulluq qila kitobni olib, Temurning piri Xoja Ahror valiyning “Risolayi Volidiya” asari bilan bu kitob uning uchun to`g`ri yo`l ko`rsatuvchi chiroq, ikki kitob ikki qanot bo`lajagini aytadi.

Shoir Mirzo Boburning ana shu paytdagi ruhiy holatini yana-da yorqinlashtirish maqsadida qahramonning o`zining ijodiy merosiga murojaat qiladi. Bobur qalamiga mansub ushbu ruboiyni keltiradi:

Ko`ngil tilagan murodiga yetsa kishi,
Yo barcha murodlarin tark etsa kishi.
Bu ikki ish muyassar bo`lmasa olamda,
Boshin olib bir sorig`a ketsa kishi.¹

Necha-necha kunlar o`tdi, oylar o`tdi, yillar o`tdi. Lekin “Bobur ishi bitmadi, ko`ngli sira to`lmadi”.<sup>2</sup> O`z Vataniga, Andijoniga borolmaydi. Shohlik davrida atrofida qo`l qovushtirib turgan beklar-u mulozimlarning ko`pi endi boshqasi uchun muntazir. Lekin shunday esa-da “Bobur taqdir koridin yig`lamadi, kulmadi...”<sup>3</sup>, temuriyzodalarning sha`nini yerga urmaslik uchun, bobolarin ruhlarini xarob ko`rmaslik uchun, onasining arvohi chirqiramasligi uchun “Hech yaramas yog`iyga bo`yin egmadi”, “Bobur hech cho`kmadi, pasaymadi, evrilmadi”.⁴

Bobur xarakterini belgilashda shoir tomonidan bayon etilgan yuqoridagi fikrlar ham asos bo`la oladi. Chunki dostonda Bobur basharti yurtidan yiroqda esa-da, qo`rqoqlarcha qochqin

¹ Nizom T. Saylanma. T: “Sharq”, 1998. 212-b.

² O`sha asar. 213-b.

³ O`sha asar. 213-b.

⁴ O`sha asar. 213-b.

qilmadi. Ona xalqining tinch va osoyishta hayoti ustida uzoq muddat jang yasab, el-u xalq ahvolini xarob-u tang etishni xohlamadi, yana-da to`g`rirog`i yurtidagi hukmron tabaqa vakillari Bobur kabi Vatanni, uning ozodligini emas, balki o`z mavqeyi, manfaatlarini o`ylab ish tutdilar. Shoir Turdi Farog`iy ta`biri bilan aytganda, “Tor ko`ngilli beklar man-man”¹ likka berildilar. Oxir-oqibat “Vatanni-da, o`zlarini-da berib qo`ydilar”.²

Bobur dostonida yosh, tajribasizroq esa-da, qo`rqmas, jasur, dovyurak, yovqur inson, Vatanning munosib farzandi sifatida tasvirlangan. Bu esa Bobur xarakteri portretidagi yorqin ranglardan biri vazifasini o`tagan. Boburning dostonidagi Vatanni tashlab chiqib ketish chizgisi ham juda ta`sirchan bo`lib, unga vatandan ayro tushish g`oyat mushkul ekani, Sulaymon tog`ida o`tirib, Ona Andijonga to`ymay tikilgani, Vatan sham bo`lsa, u parvona ekani juda ta`sirli ifodasini topgan.

Sulaymon tog`ida Bobur pinhona
Ona Andijonga to`ymay tikilar.
Dedi: sen shamsan, men bir parvona
Yurakdan o`tganin bir Olloh bilar.³

To`lan Nizom “Uch so`z” dostonini yaratish jarayonida milliy xarakterlar talqinini yana-da yorqinroq ifoda etish maqsadida xalqona ohang va dostonlarga xos she`riy o`lchovlardan unumli foydalandi. Xalq dostonlari, asosan, 11 bo`g`inli misralarda yaratilsa-da, qahramon harakati tezlashgan, otlar chopishi, jang tasviri kabilarda 7-8 hijoli misralarda yaratiladi.⁴

To`lan Nizom ham folklor an`analariga sodiq qolib, doston qahramoni faoliyatining keskinlashgan o`rinlarini 4-5 bo`g`inli misralarda ifoda etadi:

Baland Hisor,
Ey purviqor!
Poying bahor,
Boshingda qor.
Qoldi diyor...
Qoldi diyor...
Ul yog`ingda
O`zga yurt bor,

¹ Turdi Farog`iy

² Murod T. Yulduzlar mangu yonadi.

³ Nizom T. Saylanma. T: “Sharq”, 1998. 215-b.

⁴ Imomov K. va boshqalar. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. –T: O`qituvchi, 1990. B. 265.

Bobur senga
Borayotir
Quchog`ingga
Ul yog`ingga...¹

Shoir dostonni yaratar ekan, unga “xalq kuylaridan ohang tanlaganini”, “Go`ro`g`li”, “Alpomish” o`lchoviga mos”² vaznlardan foydalanganini qayd etib ketadi:

Xalqim kuylaridan tanladim ohang,
“Go`ro`g`li”, “Alpomish” o`lchoviga mos.
Doston davom qilur endi boshqa rang,
Kela qol va sekin tingla, iltimos.

Xalq kuylariga mos ohangdorlik dostonning o`qishlilikini ta`minlagan. Milliy xarakterlar talqinini ochib berishda milliy ohanglarning beqiyos ekani ushbu dostonda o`zining isbotini topgan.

Ulug` adibimiz Abdulla Qahhor asar qahramonining xarakter darajasiga ko`tarilishini adabiyot uy daftarida yangi insonning paydo bo`lishiga qiyos etgan edi. To`lan Nizom “Uch so`z” dostonida shoh va shoir, buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur timsolini yaratishda uning turli qirralarini to`la-to`kis aks ettirish orqali o`zbek dostonchiligi “uy daftarida” yangi bir milliy xarakterning paydo bo`lishiga erishdi.

¹ Nizom T. Saylanma. T: “Sharq”, 1998.215-b.

² O`sha asar. 220-b.

Xulosa.

Ijod bu juda murakkab jarayon. Uni tahlil qilish ham o'ziga yarasha qiyinchiliklarni talab qiladi. Shundan kelib chiqib, biz ijodi kam o'rganilgan ijodkorlardan biri bo'lmish fidoyi inson, muallim, jamoat arbobi, qalbi kuyga to'la shoir To'lan Nizom she'riyatining ba'zi qirralarini tadqiq etishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida To'lan Nizom ijodining o'zbek she'riyatida tutgan o'rnini haqida bahs yuritdik. Shoirning she'r va dostonlarida milliy ozodlik mavzusining tarannum etilishi va unda lirik qahramon xarakterini shakllantirish va yaratish masalasi ustida o'z mulohazalarimizni berishga harakat qildik.

Shoir To'lan Nizom ijodi, asosan, Vatanimiz mustaqilligidan so'ng gullab-yashnadi. Uning she'rlari ham mavzu e'tibori bilan shu davrdagi ko'plab ijodkorlarning she'rlari bilan hamohang. Biroq ana shu bizga tanish bo'lgan mavzular, tanish kechinmalar, tiyg'ular uning she'rlarida tamoman yangi, o'ziga xos ohangda, ranglarda o'z tajassumini topgan.

Shoirning "O'zbekiston", "To'yona she'r", "Diyor mehri" kabi bir qator she'rlarini o'qiganda ona yurtimizni yangitdan taniyotgandek bo'lasan, Vatan, ona, tabiat haqida qanchadan-qancha she'rlar yozilganiga qaramay, biz yana qayta hayajonlanamiz, bir olam zavq olamiz.

Shoir lirikasining xalq ardog'ida bo'lishining sababi shundaki, unda Vatanni sevish, xalqparvarlik, ezgulik va adolat, insoniy sevgini ulug'lash, ilm-ma'rifatga da'vat singari umuminsoniy tuyg'ularning kuylanishi bilan birga, ularning yuksak she'riy san'atlar vositasida nuqtadonlik bilan zavqbaxsh tarzda ifodalanishidir. Uning she'rlarida yuqorida keltirilgan yuksak ma'naviy tuyg'ular qurshovida tasvirga olingan doston qahramonlari va lirik qahramonlar xakteri o'zining badiiy ifodasini topgan. Shoir she'r va dostonlarida milliy xarakterlar yaratish jarayonida xalqimizning qon-qoniga singib ketgan milliy urf-odatlar, qadriyatlar va ulug' fazilatlardan unumli foydalangan.

To'lan Nizom she'riy asarlarining lirik qahramoniga avvaldan tanish bir yaqin kishingiz kabi tezda o'rganib qolasiz va u asar davomida sizdan bir muddat bo'lsa-da uzoqlashmaydi,

aksincha asar oxirida sizning yaqin qadrdonlaringizdan biriga aylanib qoladi. Demak shoir o'z qahramonlaridan xarakter yarata oldi, ko'zlagan maqsadiga erishdi. Masalan, Onasi haqida yozar ekan, oppoq ro'molli, sizning yo'lingizni kutib charchamaydigan, kichik bir yutug'ingizdan terisiga sig'may quvonadigan, muvaffaqiyatsizligingizdan o'zingizdan ham ko'proq g'amga botadigan o'z onayizingiz ko'z oldingizga keladi. O'zbekning qadoq qo'li bilan oltin yaratadigan dehqoni haqida yozar ekan, ishlab charchamaydigan, erta bahordan kech kuzga qadar dalasidan bir dam bo'lsa-da ayrilmaydigan, qilgan mehnatining samarasi o'laroq hosildan tog'-tog' xirmon ko'taradigan, o'z mehnatidan olam-olam zavq ola biladigan mirishkor o'zbek dehqonining adabiy portretini mahorat bilan chizadi va bu milliy qahramon xarakterini talqin etishda yordam beradi.

“Humo” dostonida yurtimizdagi olamshumul o'zgarishlar o'zining badiiy in'ikosini topgan. Mustaqilligimizning o'n ikki yilligiga bag'ishlab yozilgan “Dovon” dostonida poytaxtimiz – Toshkent shahri bilan go'zal vodiyni bog'lab turuvchi rishta, ulkan yo'l – Qamchiq dovonida qahramonona mehnat qilgan yo'lsozlar va ularning shijoatkorona mehnati o'zining badiiy ifodasini topgan. O'zbekiston mustaqilligining o'n olti yilligiga bag'ishlab yozilgan “Vatan ichra bir vatan” deb atalgan dostonida esa Shahrixon timsolida go'zal Vatanimizga nisbatan mehr-muhabbatini samimiy satrlar orqali ifoda etgan.

Istiqlol yillarida yaratilgan ushbu dostonlarida Vatanimizning turli jabhasida fidokorona mehnati bilan mustaqil diyorimiz ravnaqi uchun “elim deb, yurtim deb yonib” harakat qilayotgan millatimiz vakillari qalamga olingan. Qahramonlarning dostonidagi badiiy qiyofasini yaratish barobarida shoir bu badiiy umumlashma obrazlarning ichki va tashqi olamini inkishof etish bilan birga, mehnatkash, oqko'ngil, fidoyi, erksevar, bolajon, mehribon, mehmondo'st va boshqa sanab adog'iga yetib bo'lmas fazilatlarini o'zida mujassam etgan ona xalqimizning tipik timsolining xarakter-xususiyatini to'laqonli ochib bera oldi.

Tadqiqotimizning ikkinchi bobida To'lan Nizom dostonlarida tarixiy shaxslar obrazi talqini xususida fikr yuritilgan. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, turli tarixiy shaxslar – yurtimiz tarixida yorqin iz qoldirgan allomalar, olim-u ulamolar, fozil-u fuzalolar, vatanimiz tarixida yurt dushmanlari bilan mardonavor kurashgan chinakam mard va jasur o'g'lonlarining hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan dostonlar ustida ishlash avj pallaga kirdi. Sohibqiron Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari sarkarda, alloma va shoirlar hayoti katta-kichik doston va boshqa janrlarda qalamga olindi.

So'nggi o'n yillikda safdoshlari qaraganda doston janrida eng barakali ijod etgan shoir sifatida To'lan Nizomni ko'rsatish xato bo'lmaydi, bizning nazarimizda.

Toʻlan Nizomning “Ruhi ravonim” dostoni Mashrab haqida yozilgan boshqa asarlardan farq qiladi. Ushbu doston tahlilida Mashrabning mutasavvuf shoir boʻlganligiga urgʻu berdik. Chunki mashrabning soʻfiy shoir boʻlganligini eʼtibordan chetda qoldirilsa, uning haqiqiy qiyofasi asarda boʻy koʻrsata olmaydi. Dostonni yaratishda shoirning asosiy maqsadi ham shu boʻlgan. Shuning uchun ijodkor Mashrab siymosini yaratishda va uning xarakterini ochib berishda Mashrabi devona haqidagi xalq ichidagi turli rivoyat va latifalarga keng murojaat etgan. Dostonda ruh manzillari sari intilayotgan qalb faryodlarini berish vositasida tarixning mahzun manzaralarini chizmoqchi boʻladi. Shu maqsadda boʻlsa kerak, asarda kechinmalar tasviriga keng oʻrin beriladi.

Umuman olganda, Mashrab – ruh kishisi. Uning qalbida ishq majozidan koʻra ishq ilohiy ustunlik qiladi, umuman uning ishq Olloh uchun. Muallif ham undagi komillik belgilarini Yaratganga boʻlgan muhabbatda koʻradi va shunday talqin etadi.

Shoir “Choʻlpon” dostoni ham bu sohadagi eʼtiborga molik ishlardan biridir. Dostondagi Choʻlpon “xalq dushmani” ham “millatchi” ham emas. Aksincha xalqimizning, millatimizning asl farzandi, fidoyi inson. Yurt ozodligi, vatan erki yoʻlida qurbon boʻlgan yuksak vatanparvarlik timsoli. Toʻlan Nizom dostonida Choʻlponning yurt erki, vatandoshlarimizni ziyoli qilish yoʻlidagi ishlari va boshqa ezgu fazilatlarini yorqin boʻyoqlarda berish orqali uning xarakterini belgilay olgan. Milliy xarakter darajasiga koʻtarishga muvaffaq boʻlgan.

“Uch soʻz” dostonida vatandoshimiz buyuk sarkarda, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayotini mavzu qilib olgan. Biz Bobur Mirzo shaxsi talqin etilgan ushbu dostonni tadqiqotimizning alohida faslida tahlilga tortishga jazm etdik.

“Xarakter – badiiy asar mazmunining shaklidir”¹. Toʻlan Nizom oʻzining Bobur siymosini badiiy talqin etgan “Uch soʻz” dostonida asar mazmunini koʻrkamlashtirish maqsadida Bobur boshliq turli tarixiy shaxslar obrazlarini yaratish bilan birga turfa xil badiiy toʻqima obrazlarni kiritadiki, asar mazmunining shakli oʻzgacha koʻrinish oladi.

Shoir dostonida Bobur Mirzo timsolini xarakter darajasiga koʻtarishda tadrijiylikka amal qiladi. Yaʼni Bobur Mirzoning tugʻilishidan to kamolga yetguniga qadar uning xarakter-xususiyatini belgilovchi oʻrinlar bilan boyitib boradi. Bu esa oʻquvchi tasavvurida doston qahramonlari ruhiyatini yana-da yorqinroq va undagi voqealar bayonining yana-da joʻshqinroq shaklda aks etishini taʼmin etadi. Shu tariqa kitobxon, yuqorida aytganimizdek, shoir aytmoqchi boʻlgan fikrni oʻzi uqib oladi va xarakter darajasiga koʻtarilgan asar qahramonlari bilan qadam-

¹ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T: “Oʻqituvchi”, 1980. 133-b.

baqadam birga yuradi. Quvonsa, quvonadi, azob cheksa, azoblanadi. Qahramon muvaffaqiyati – uning muvaffaqiyati, qahramon mag`lubiyati – uning mag`lubiyati.

Dostonda Bobur Mirzo xarakterini ochib berish jarayonida uning farzand, ota, shoh, shoir, yor, umuman, inson sifatidagi fazilatlarining birortasi e`tibordan chetda qoldirilmagan. Uning yuksak vatanparvarlik tuyg`usi bilan limo-lim qalb tarjimasi esa dostonda yuqori planda doimiy ravishda berib boriladi.

Xullas, shoir dostonnavis sifatida tarixiy mashhur siymolarning har tomonlama yetuk badiiy obrazini yaratishga harakat qilgan. Bu tarixiy shaxslarning xarakterini oshib berishda tarix faktlariga suyanish tamoyili ustuvorlik qilgan, ruhiy psixologik tahlilga katta ahamiyat berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – T. : Ma`naviyat, 2008.
2. Karimov I. A. O`zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo`li. – T. : O`zbekiston, 2007. – B. 3
3. Karimov I. A. Adabiyotga e`tibor –ma`naviyatga , kelajakka e`tibor// “Жаҳон адабиёти “ журнали, 2009 й
4. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T. : O`zbekiston, 2005, -B. 94.

II. Ilmiy adabiyotlar

5. Belinskiy V. G. Poln. sobr. soch. , t. 12, Gosizdat, 1926, s. 332.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T. : O`zbekiston, 2002, - B. 41.
7. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T: “O`qituvchi”, 1980. 133-b.
8. Imomov K. va boshqalar. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. –T: O`qituvchi, 1990. B. 265.
9. Mirvaliyev S. Shokirova R. O`zbek adiblari. T. : G`afur G`ulom nashriyoti, 2007, - B. 166.
10. Sodiqova R. Hozirgi o`zbek dostonlarida mashhur siymolar obrazining yaratilishi va badiiy izlanishlar. Avtoreferat. – T. : O`zbekiston, 2002, - B. 191.
11. To`lak I. She`r – qalb yolqini. – T. : G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1994, - B. 11.
12. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T. : Xalq merosi, 2004, - B. 32.
13. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug`ati. – T: Akademnashr. 2010. B. 173.
14. Sharifxo`jayev M. Istiqlol istiqbollari. – T. : O`zbekiston, 1994, - B. 80.

III. Vaqtli matbuot nashrlari

15. Nizom T. Bu yo`llar yangi yo`llardir//Hurriyat, - 2008, 31-son.
 16. Nurmonov A. Istiqlol kuychisi//Andijonnoma, - 2008, - 15-noyabr.
- IV. Badiiy adabiyotlar va manbalar
17. Murod T. Yulduzlar mangu yonadi.
 18. Nizom T. Muqaddas ruh. – T: G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1992, - B. 93.
 19. Nizom T. Chaman ichra. – T. , Cho`lpon nashriyoti. 1994.
 20. Nizom T. Oy qizlar. –T: G`afur Gulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1991. –B. 93
 21. Nizom.T Oq gul. Andijon: 1996, - B. 4.
 22. Nizom T. Andijonda bir qush bor.

23. Nizom T. Vatan surati. – T. : G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1996-yil, -B. 346.
24. Nizom T. Saylanma. Bahoriy maysalar. T: Sharq. 2007. – B. 346.
25. Nizom T. Cho`lpon. – T: G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1993.
26. Nizom T. Saylanma. T: “Sharq”, 1998. 188-b.
27. Nizom T. Aks sado. – T. : Cho`lpon, 1994.
28. Nizom T. Dahr bog`i. – T. : Adabiyot va san`at nashriyoti, 1995.
29. Nizom T. Humo. – T.: Kamalak. 1996.
30. Nizom T. Ruhlar qasidasi. – T. : Cho`lpon, 2003.
31. Nizom T. Dovon. – T. : cho`lpon, 2003.
32. Nizom T. Andijondan salom. – A. : Andijon, 2008.

IV. Internet ma`lumotlari.

INTERNETda www.literature.uz

www.google.co.uz, www.rambler.ru